

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 92 (1691), 2026-yil 8-may, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



AVSTRIYA BILAN KO‘P QIRRALI SHERIKLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-may kuni Avstriya Respublikasining Yevropa va tashqi ishlar federal vaziri Beate Maynl-Rayzinger va ichki ishlar federal vaziri Gerxard Karnerdan iborat delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmonlar davlatimiz rahbariga Avstriya Federal Prezidenti Aleksandr Van der Belenning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Turli darajalardagi muloqotlar izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Keyingi yillarda tovar ayirboshlash 3 barobar oshdi. Qurilish materiallari, tog‘ turizmi, sog‘liqni saqlash, kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi, bank-moliya va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari jadal amalga oshirilmog‘da.

Hukumatlararo komissiya samarali faoliyat yuritmoqda. Ushbu tashrif doirasida qo‘shma biznes-forumi muvaffaqiyatli o‘tkazildi, mehnat migratsiyasi, diplomatik xizmat va soliqqa tortish sohasida muhim bitimlar imzolandi.

Madaniyat va ta‘limda ham almashinuvlar kengayib bormog‘da.

Oliy darajada tizimli muloqotni yo‘lga qo‘yish, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, ustuvor yo‘nalishlarda qo‘shma loyihalarni ilgari surish muhimligi ta‘kidlandi.

Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik haqida so‘z yuritilgan ekan, terrorizm, odam savdosi, narkotrafik va kiberjinoyatlariga qarshi kurashish sohasida muntazam axborot almashish zarurligi qayd etildi.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘ZA

ZAMONAVIY BILIMLARNI EGALLAGAN HARBIIY KADRLAR – MILLIY ARMIYAMIZ KUCH-QUDRATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va armiyani raqamlashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Keyingi yillarda dunyoda yuz berayotgan qurolli mojaralarda uchuvchisiz uchadigan apparatlar, robotlashgan tizimlar, radioelektron kurash vositalari va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan keng foydalanilmog‘da. Bu esa nafaqat qurolli-yarog‘ va harbiy texnikalarni yangilash, balki yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashni ham taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda mazkur yo‘nalishda izchil ishlar amalga oshirilmog‘da. Qo‘shinlarda dronlarni jangovar qo‘llash va ularga qarshi kurashuvchi yangi bo‘linmalar tashkil etilib, uchuvchisiz uchadigan apparatlar operatorlari, muhandislar va robototexnika mutaxassislarini tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Taqdimotda davlatimiz rahbariga mazkur mobil bo‘linmalar faoliyati hamda ushbu yo‘nalishda mutaxassislar tayyorlash tizimi yuzasidan hisobot berildi.

Harbiy ta‘lim tizimini isloh qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. 2025-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan mazkur sohani rivojlantirish, zamonaviy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega harbiy kadrlarni tayyorlash choralarini ko‘rildi. Natijada barcha oliy harbiy ta‘lim muassasalariga institut maqomini berilib, yagona vertikal boshqaruv tizimi yaratildi, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi.

Zamonaviy jangovar harakatlar, qo‘shinlardagi real ehtiyoj va ilg‘or oliy ta‘lim muassasalari tajribasi asosida yangi malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari joriy etilmog‘da. Tayyorgarlik nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish tamoyili asosida tashkil etilib, bo‘lajak ofitserlar o‘quv jarayonining o‘zida dolzarb vaziyatdan kelib chiqib xizmat o‘tashlari uchun zarur ko‘nikmalarni egallashi ko‘zda tutilgan.

Bakalavr darajasida harbiy kadrlar tayyorlashning mullaqo yangi modeli doirasida kursantlarga xorijiy tillar, axborot texnologiyalari va sun‘iy intellekt chuqur o‘rgatiladi.

Qo‘mondonlik-shtab ofitserlari uchun ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy qurolli to‘qnashuvlarni o‘rganish asosida ilk bor uch bosqichli yangi o‘qitish tizimi joriy etildi.

Shu bilan birga, serjantlar tarkibini tayyorlash ko‘lami ham kengaytirildi. Asosiy yangiliklardan biri — oliy harbiy ta‘lim muassasalarida serjantlar uchun bakalavriatning oltita fuqarolik mutaxassisligi bo‘yicha masofaviy ta‘lim yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, aviatsiya va uchuvchisiz uchadigan apparatlar mutaxassislarini tayyorlash tizimi yanada takomillashtirilib, mazkur yo‘nalishda Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini o‘qitish va ularga yagona sertifikat berish tartibi joriy etildi.

Taqdimotda armiyani raqamlashtirish va kiberxavfsizlikni ta‘minlash masalalari ham ko‘rib chiqildi.

O‘ZA

AHOLIGA QULAY, XAVFSIZ VA EKOLOGIK TOZA JAMOAT TRANSPORTI XIZMATI KO‘RSATISH YAXSHILANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarda jamoat transportini yanada yaxshilash va bu boradagi ishlarni jadallashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda aholiga qulay, xavfsiz va ekologik toza jamoat transporti xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmog‘da. Xususan, oxirgi uch yilda poytaxt va viloyat markazlariga 2 ming 650 ta zamonaviy elektrobus va avtobuslar olib kelindi. Brutto-shartnoma asosida 279 ta muntazam yo‘nalish yo‘lga qo‘yildi.

Natijada har kuni yo‘nalishga chiqayotgan avtobuslar soni 3 ming 150 taga yetdi. Kunlik qatnovlar soni 2022-yildagi 18 mingtadan 45,2 mingtaga, yo‘lovchilar oqimi esa 900 ming nafardan 2,3 million nafargacha oshdi. Shu orqali 4,8 mingta yangi ish o‘rni yaratildi.

Taqdimotda jamoat transportini yanada rivojlantirish bo‘yicha navbatdagi vazifalar ko‘rib chiqildi. Urbanizatsiya jarayonlari tezlashayotgani, poytaxt va viloyat markazlariga tutash hududlarda aholi harakati keskin ko‘paygani sababli shaharlarga kirishda qatnovlar 30 foizga oshgani qayd etildi.

Shu munosabat bilan shahar jamoat transportini yagona aglomeratsiya tizimiga o‘tkazish taklif qilindi. Bunda shaharlar atrofidagi 12 kilometrgacha bo‘lgan hududlarga qatnaydigan avtobus yo‘nalishlari ham brutto-shartnoma tizimi bilan qamrab olinadi.

Jumladan, Toshkent viloyatining Nazarbek, Shifobaxsh suvlar va Uch Qahramon hududlarini poytaxt bilan bog‘lash orqali avtomobillar oqimini kamida 20 foizga kamaytirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi. Umuman, poytaxtda 19 ta, viloyat markazlarida 79 ta shunday yo‘nalish tashkil etish rejalashtirilgan.

Poytaxt jamoat transporti va shahar atrofi temir yo‘l qatnovlarini o‘zaro bog‘lash maqsadida “elektropoyezd — avtobus”, “elektropoyezd — metro” kabi qulay tariflarni joriy etish taklif qilindi.

Qolaversa, viloyat markazlarida jamoat transporti harakati tarkibini yangilash zarurligi ta‘kidlandi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, hududlarda yana 1,5 mingta katta va o‘rta sig‘imli avtobuslarga ehtiyoj bor. Shu bois, zamonaviy avtobuslar olib kelinishi rag‘batlantirish, tadbirkorlar uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish, kredit liniyalarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar bildirildi. Jumladan, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida avtobuslarni import qilishda ulatizatsiya yig‘imidan ozod qilish muddatini yana 2 yilga uzaytirish taklif qilindi.

Taqdimotda avtobus haydovchilari uchun munosib va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish

masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Bugungi kunda ayrim haydovchilar me‘yordan ortiq ishlayotgani xizmat sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani qayd etildi. O‘tgan yili poytaxtning o‘zida haydovchilarning xatti-harakatlari va muomalasi yuzasidan aholidan 1 ming 670 ta shikoyat kelib tushgan. Avtobuslar ishtirokida 109 ta yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan.

Shu munosabat bilan brutto-shartnoma tizimini takomillashtirish, bir avtobusga to‘g‘ri keladigan haydovchilar sonini 2 nafardan 3 nafargacha oshirish, harakat xavfsizligi va xizmat madaniyatini kuchaytirish vazifasi qo‘yildi.

Jamoat transportida bajarilgan ish hajmi va sifatini baholash uchun har bir viloyatda dispetcherlik markazlari tashkil etilgan. Buning natijasida harakat jadvaliga muvofiq bajarilayotgan qatnovlar ulushi 90 foizga yetdi.

Endi ushbu tizimlarga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali yo‘lovchilar oqimiga mos ravishda avtobuslar harakatini tashkil qilish taklif etilmog‘da. Bu bir yo‘lovchini tashish tannaxmini 10-15 foizga qisqartirish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari jamoat transportini rivojlantirishda aholi soni ko‘p shaharlar bilan

birga turizm markazlarini ham qamrab olish zarurligini ta‘kidlandi.

Samarqand va Namanganni aholisi bir millionlik shaharlarga aylantirish bo‘yicha belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, mazkur hududlarda aholi va sayyohlar uchun zamonaviy “yashil transport” yo‘nalishlarini ko‘paytirish bo‘yicha aniq master-rejalar ishlab chiqish topshirildi.

Oxirgi yillarda Xiva shahriga turistlar oqimi 3 karra ko‘paygani, bu esa qulay jamoat transportiga ehtiyojni keskin oshirgani qayd etildi. Shu bois, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon, Qo‘qon kabi yirik turizm maskanlarida ham jamoat transportini rivojlantirish dasturini boshlash zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Prezidentimiz jamoat transporti aholi kundalik hayoti sifatini, shaharlardagi harakat madaniyatini, ekologiya va iqtisodiy faollik bilan bevosita bog‘liq muhim soha ekanini ta‘kidlab, mutasaddilarga transport xizmatlari qulayligi va xavfsizligini oshirish, yo‘nalishlarni aglomeratsiya tamoyili asosida kengaytirish, sohada raqamlashtirish hamda sun‘iy intellekt yechimlarini joriy etish bo‘yicha aniq topshiriqlar berdi.

O‘ZA



1943-YIL. SARIOSIYO VOKZALI

Otam gurgung bergan, o‘zi ko‘rgan, guvoh bo‘lgan urush yillari xotiralardan bir mungli, dardli manzara hech esimdan chiqmaydi. Bu voqeani otam biz uyimizda qotgan nonlarni molga, kuchukka berayotganimizni ko‘rib, keyin dasturxon atrofida yig‘ilishib o‘tirganimizda gapni uzoqdan boshlab aytib bergan.

— Nonga, nasibaga hech vaqt nopsand bo‘lmanglar, — degandi otam. — Odamzodning boshiga har balo tushishi mumkin. Urush ekan-da, 1943-yil yarador bo‘lib, gospiatalda davolanганиmdan so‘ng yaram og‘ir ekan shekilli, uyga borib kelishimga ruxsat berishdi. Keldim. Yo‘lxaltamda yarimta bulka non bilan bir bronka dudlangan go‘sh. “Tushyonka”, deydi-ku. Vokzalda jinjagi chiqib ketgan, yupun, mushtipar ayolga ko‘zim tushdi. Yonida bolasi ham bor, sag‘iradan ham battar — ikkovi och-nahor, zor-zor termiladi. Bir menga, bir yo‘lxaltamga qaraydi. Qaraydi qaltiraydi, qaltiraydi qaraydi. O‘zimni tutolmadim. Yaralangan suyaklarim qayta o‘q yeganday zirqirib ketdi. Non bilan tushyonkani berdim. Kambag‘allar bir qashqaydi, bir qaltiraydi.

Non tishlaydi qaltiraydi, qaltiraydi non tishlaydi. O‘zim daryo yoqalab taxtakunjara chayanab ketdim. Yo‘lovchilar bergan taxtakunjarani. Aytсам, ishonmayisizlar. Itning boshiga solmasin u kunlarni, itning!..

1943-yil Sariosiyo vokzalida otam ishtirokida kechgan bu mahzun manzara, 1972-yil — bundan qirq uch yil burun otam bizga ibrat uchun naql qilgan bu iztirobli holat og‘ir va mashaqqatli urush yillarining jonli, mungli kinolavhasiday hayotimizga bir umrga naqshlanib qoldi.

Diydorlashuv va xo‘shlashuvlar dunyosida otamdan bir esdalik bo‘lsin deb keyinchalik bu lavhani “To‘polondaryo bilan xayrlashuv” dostonimga kiritdim. Mening kechikkan she‘riy tazarrularimni to‘g‘ri tushungaysiz, aziz o‘quvchi.

Tinchlikda kun kechirdim,
Hayotim-chun bejirim,
Ota, meni kechiring!
Musaffo osmon uchun,
Millionlab qurbon uchun
Yasholdimmi e‘tiqodni
tiriklikka ko‘chirib?
Ota, meni kechiring!
Ko‘kragingma sanchiladi
alamlarning xanjari,
Ko‘ryapman: zor ketyapsiz —
qo‘lingizda kunjara...
Ota, meni kechiring!
Kechiring, chun umringizning
bori dardu g‘am bo‘ldi,
Nega bugun non ko‘p, biroq
mehru xotir kam bo‘ldi?

Nomu mansab, shonu shuhrat
janglarida qurbonlar
Berib, nechun insonling
yo‘qotar bu insonlar?
Sahro bo‘lib o‘tganlarning
yodi meni o‘rtaydi,
Daryo bo‘lib o‘tganlarning
yodi meni o‘rtaydi.
Shuning uchun ko‘z oldimda
to‘lib-toshib hozir ham
O‘taverar To‘polondaryo —
Hech tuganmas Xotira.

2015 (1985)

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

Britaniyaning Jersi orolida Ikkinchi jahon urushi yillarida fashistlar konslageridan qochgan o‘zbek askari Bqojjon Akramovning hayotini saqlab qolgan Jon va Fillis Emili Le Bretonlar oilasiga O‘zbekistonning yuksak mukofoti — “Do‘stlik” ordeni tantanali topshirildi.

9-may — Xotira va qadrlash kuni arafasida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga ulkan hissa qo‘shgan insonlar xotirasi yana bir bor yodga olinmog‘da. Ikkinchi jahon urushi davrida sodir bo‘lgan ushbu voqea oradan 80-yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsada, xalqlar o‘rtasidagi insoniylik va o‘zaro mehr simoli sifatida qadrlanmog‘da. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qaroriga muvofiq, Buyuk Britaniya fuqarolari — marhum Jon va Fillis Emili Le Bretonlar “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

O‘zbekistonning Londondagi elchisi Ravshan Usmonov Jersi oroliga tashrif buyurib, mukofotni marhum oilaning farzandlari — Dalsi va Alan Le Bretonlarga tantanali ravishda topshirdi.

Taqdirlash marosimi Dalsi Le Breton davolanayotgan “Cheval Roc” qariyalar uyida bo‘lib o‘tdi. Unda muassasa rahbariyati, mahalliy aholi, “Jersey Heritage” tashkiloti vakillari hamda “BBC”, “ITV” va boshqa omamviy axborot vositalari jurnalistlari ishtirok etdi.

Tadbirda so‘zga chiqqan muassasa rahbari Nik Betani britaniyalik oilaning insonparvarligini yuksak baholab, O‘zbekiston hukumati g‘amini minnatdorlik bildirdi. Mukofotning Jersi oroli fashistlar istilosidan ozod etilganining 81-yilligi arafasida topshirilgani alohida ramziy ahamiyatga ega ekanini ta‘kid-ladi.

Davomi 2-beta



JERSI OROLIDA O'ZBEK ASKARINI QUTQARGAN OILA VAKILLARIGA "DO'STLIK" ORDENI TANTANALI RAVISHDA TOPSHIRILDI

Boshlanishi 1-betda

Dalsi va Alan Le Bretonlar ota-onalari xotirasini iliq so'zlar bilan yodga olib, O'zbekiston xalqiga samimiy minnatdorlik bildirdi. Ular fashizm butun insoniyat uchun tahdid bo'lganini, g'alaba esa xalqlarning birligi va o'zaro yordami tufayli qo'lga kiritilganini ta'kidledi.

Shuningdek, ular Boqijon Akramov haqidagi xotiralari bilan o'rtoqlashib, oila a'zolari orasida "Tom amaki" nomi bilan tanilgan o'zbek askari mehnatkashligi, kamtarligi va insoniy fazilatlarini bilan qisqa vaqt ichida oilaning mehrini qozonganini qayd etdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida boshlangan ushbu voqea bugungi kunda O'zbekiston va Buyuk Britaniya xalqlari o'rtasidagi



Oddiy o'qituvchi bo'lib ishlagan Boqijon Akramov urush boshlangach, armiyaga safarbar etilgan va Ukraina frontiga jo'natilgan. Janglardan birida nemis qo'shinlari 12 ming sovet askarini qirib tashlagan. Boqijon Akramov va boshqa tirik qolganlar asir olinib, sovet askarlari qatori konslagerga jo'natilgan.

do'stlik va insoniy qadriyatlarining ramziga aylangan. U "BBC" va Britaniyaning boshqa yetakchi ommaviy axborot vositalarida ham keng yoritildi.

Jersi — La-Mansh bo'g'ozida joylashgan Normandiya orollarining eng yirigi bo'lib, 1940-yil iyul oyida fashistlar

tomonidan bosib olingan. U yerda harbiy infratuzilma va yer osti bunkerlari barpo etilgan.

Oddiy o'qituvchi bo'lib ishlagan Boqijon Akramov urush boshlangach, armiyaga safarbar etilgan va Ukraina frontiga jo'natilgan. Janglardan birida nemis qo'shinlari 12 ming sovet askarini qirib tashlagan. Boqijon Akramov va boshqa tirik qolganlar asir olinib, sovet askarlari qatori konslagerga jo'natilgan.

1942-yil iyul oyida u ikki ming asir bilan birga Jersi oroliga olib kelinib, yer osti tunnellar qurilishiga jalb etilgan. Oylab davom etgan ochlik va og'ir sinovlarga qaramasdan, u asirlikdan qochishga muvaffaq bo'lgan.

Le Bretonlar oilasi esa hayotini xavf ostiga qo'yib, qochqin askarga o'z uyidan boshpana berib, uni deyarli uch yil davomida fashistlardan yashirib kelgan. 1945-yil may oyida Boqijon Akramov o'z Vatani — O'zbekistonga qaytib kelgan.

Jon va Fillis Emili Le Bretonlarning bu jasorati insonparvarlikning yorqin namunasi sifatida abadiy qadrlanadi.

"Dunyo" AA
Sent-Xelixer shahri

Bugunning gapi

TEJASH, SAMARALI BOSHQARISH VA UNDA OQILONA FOYDALANISH

RIVOJLANISHNING MUHIM MEZONIGA AYLANISHI ZARUR

Global iqtisodiyot sharoitida energiya resurslari masalasi har bir davlatning strategik kun tartibiga aylanmoqda. Aholi soni o'sishi, sanoat hajmi kengayishi va urbanizatsiya jarayonlari jadallashuvi natijasida resurslarga talab yil sayin ortib bormoqda.

Bunda energiyani ko'proq ishlab chiqarishning o'zi yetarli emas, tejash, samarali boshqarish va unda oqilona foydalanish taraqqiyotning muhim mezoniga aylanadi.

Energiyani tejash iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, xarajatlarni qisqartiradi, ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi va aholi farovonligini oshiradi. Mamlakatimizda ham mazkur yo'nalishda tizimli va uzoqni ko'zlagan chora-tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.

Xususan, Prezidentimizning "2026-yilda energiya samaradorligini yanada oshirish, energiya resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Hujjat nafaqat sohada bugungi vazifalarni belgilab bermoqda, balki kelgusi taraqqiyot uchun mustahkam institutsional va texnologik poydevor yaratmoqda.

Bugun davlatimiz rahbari har bir fuqaroga samarali, uzluksiz energiya resurslarini yetkazib berish bilan birga, ushbu resurslardan iqtisodiyotda ham oqilona foydalanish, sarflanadigan resurslardan qo'shilgan qiymat yaratish borasida juda katta vazifalar qo'yilmoqda, — deydi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Energiya samaradorligi milliy agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Obid Pardayev.

O'rganishlar ko'rsatmoqdaki, O'zbekistondagi binolarning bir kvadrat metr maydoniga yiliga o'rtacha 350 kVt-soat energiya resurslari sarflanadi. Bu ko'rsatkich boshqa mamlakatlarga nisbatan juda yuqori. Masalan, Yevropa mamlakatlarida bu ko'rsatkich 95-100 kVtmi tashkil etadi.

Ayni maqsadda farmonda qator muhim vazifalar belgilab berildi. Xususan, joriy yildan boshlab har qanday qurilish-ta'mirlash ishlarida energiya samaradorligi tadbirlari ustuvor vazifa etib belgilandi. Shuningdek, byudjet tashkilotlarining xarajatlari smetasidagi to'rtinchi guruh xarajatlarning kamida 5 foiz qismi ushbu tashkilotlarning energiya samaradorligini oshirish tadbirlariga yo'naltiriladi.

Farmonda 2026-yilda 4,3 milliard kVt-soat elektr energiyasi va 2,8 milliard metr kub tabiiy gazni iqtisod qilish belgilanmoqda. Bunga iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlari samaradorligini yanada oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish orqali erishish ko'zda tutilgan.

Hujjatda joriy yilda energiya samaradorligi bo'yicha dastur va aniq chora-tadbirlar asosida 2,6 milliard kVt-soat elektr energiyasi, 932 million metr kub tabiiy gazni yakka tartibdagi va ko'p kvartirali uylar, ijtimoiy soha obyektlari, xo'jalik subyektlarida iqtisod qilish va yirik sanoat korxonalarida kesimida bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan energiya resurslari tejashdagi kamaytirish hisobiga 1,6 milliard kVt-soat elektr energiyasi va 553 million metr kub tabiiy gazni tejashga erishish ko'zda tutilmoqda, — deydi energetika vazirining birinchi o'rinbosari Baxtiyor Mamatkarimov.

Shuningdek, 1,3 milliard metr kub gaz yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarining qo'shimcha ishlab chiqarishi, 35 million metr kub gaz

og'ir mahallalarda quyosh paneli o'rnatish, 1,6 milliard kVt-soat elektr, 0,6 milliard metr kub gaz 25 ta yirik tarmoq korxonasida tejash tadbirlari hisobiga iqtisod qilindi.

Farmon bilan 2026-yilda energiya resurslarini iqtisod qilishning maqsadli ko'rsatkichlari va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

"Yo'l xaritasi"da binolarni energiya samaradorligi toifalariga ajratish tizimi, "Nol energiya sarfli binolar" konsepsiyasini hamda "Oq sertifikatlar" tizimini joriy etish va boshqa masalalar ko'zda tutilgan.

Endilikda yangi quriladigan binolarning loyiha hujjatlarida tabiiy yorug'liklardan samarali foydalanish hamda "aqli" isitish, sovitish va shamollatish tizimlarini joriy qilish belgilanmoqda.

Har yarim yilda iqtisodiyotning energiya sig'imi hisoblanib, e'lon qilib boriladi. Shuningdek, iste'molchilar toifalarida energiya samaradorligi bo'yicha etalon ko'rsatkichlari joriy qilinadi, energiya iste'moli hajmidan kelib chiqib ularning reytingi shakllantiriladi. Ijrobyi ko'rsatkichlarga erishilgan rag'batlantiriladi.

Energiya samaradorligi milliy agentligiga qo'shimcha vazifalar yuklatilmoqda. Xususan, agentlik energiya samaradorligi loyihalari yanaga yondashuv va o'zaro hamkorlik asosida amalga oshirishga mas'ul bo'ladi. Shu bilan birga, energiya resurslarini tejash tadbirlarini nazorat qiladi va doimiy hisobot kiritib boradi. Energiya samarador qurilma, uskuna va qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo'yicha loyihaviy takliflar tayyorlaydi.

Energiya samaradorligi bo'yicha modernizatsiya ishlarida jahon tajribasida ESKO mexanizmlari qo'llaniladi, — deydi O.Pardayev. — Bunda bino va inshootlarni modernizatsiyalash hisobiga sarflanayotgan energiya resurslari tejashga erishiladi. Qilingan xarajatlardan tejalgan energiya resursi qiymati hisobdan qoplanadi.

Bu amaliyot butun dunyoda yaxshi samara berib kelmokda. Prezidentimiz farmonida ushbu mexanizmlarning huquqiy asoslari ham belgilab berilgan ahamiyatidir.

Energiya iste'molini hamda samaradorlik ko'rsatkichlarini katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), biznes tahlil (Business Intelligence) va sun'iy intellekt texnologiyalarini asosida tahlil qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda.

Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida tamomila yangi nazorat mexanizmi joriy etilmoqda. Ya'ni maqsadli parametrlar va tadbirlar ijrosi ustidan nazorat "Energiya tejamkorlik" platformasi orqali amalga oshiriladi.

Mazkur farmonning qabul qilinishi energiya resurslarini tejash hamda oqilona foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa aholiga yaratiladigan qulayliklar ko'payishi, tadbirkorlik va iqtisodiyot tarmoqlari uchun qo'shimcha resurs degani.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston"
muxbiri



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

YAXSHILIK SOG'INIB YASHASH SAODATI

Qashqadaryolik Ro'ziboy ota Sattorovning ikkinchi jahon urushidan qaytib kelganiga sakson bir yil bo'ldi. Bu yil 116 yoshni qarshilagan nuroniy farzandlari, nevarachevaralari qurshovida umrguzaronlik qilmoqda. U yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligini so'rab duo qiladi. Yoniga kim kelsa, ushbu shukuhli kunlar qadriga yetish, baxtli yashash siri halol mehnatda ekanini uqtiradi.



xabar olib turishidan mamnun. Bobo o'tgan yili samolyotda parvoz qilish orzusi borligini aytgan edi. Shundan so'ng Prezidentimiz topshirig'iga ko'ra, Ro'ziboy ota Mudofaa vazirligining harbiy havo kuchlariga qarashli samolyotda parvoz qildi. Bunday Ro'ziboy otaning boshi ko'kka yetgan edi.

Shu o'rinda kichik hayotiy voqeani keltirsak. "Bolaligimda buvim doim yo'l qarab o'tirar, kechki paytda darvozani yopmasligimni ta'ayinladi, — deydi ko'kdalalik muallim Farhod Norqulov. — Bu odatga ko'nikib qolgan bobom gohida "Urush tugaganiga e'lon qilindi, endi kelamiz" deya tanbeh bergan kishi bo'lardi. Biz, bolalar buning farqiga bormas, biror mehmon kelar deb qo'yardik. Keyin bilsak, buvimning akasi urushda bedarak ketgan ekan. Buvim esa umrining so'nggi kunigacha akasining kelishini intiq bo'lib kutdi".

Shuning o'ziyiq bugungi tinch va farovon kunlarning qadr-qimmatini behoh ekanini ko'rsatadi. Demak, biz buni teran anglab, har lahzada Vatanimiz va xalqimizga munosib xizmat qilish niyatida yashashimiz kerak. Shu ma'noda, Ro'ziboy ota Sattorov kabi nuroniyning hayot

yo'li biz uchun ibrat maktabidir.

Dorilamon kunlarda yashayotganidan mamnun qahramonimiz hamon farzandlari, nevara va chevaralariga hayot yo'li haqida hikoya qilishdan charchamaydi. Bobo 1910-yili yoz chillasida Qamashi tumanidagi Mang'it qishlog'ida tug'lgan. Ro'ziboy Sattorov ayni kuchga to'lib, 29 yoshga yetganida harbiy xizmatga chaqirildi. O'sha davrda sovuq o'lkalarida ikki yillik harbiy xizmatni o'tadi. Xizmatdan uyga qaytgach, ko'p o'tmay, urush xabari tarqalgan, ikkinchi jahon urushiga safarbarlik boshlandi. Hali o'n gulidan bir guli ochilmagan navqiron yigitlar front tomon yo'l oldi. Sovuq urushning tafti Mang'it qishlog'iga ham kirib keldi. Shu tarzda Ro'ziboy Sattorov birinchilardan bo'lib urushga chaqirildi. Qishloqning 25 yigitini xo'jalik idorasida saf tortdi. Qahramonimiz ularga yetakchi etib tayinlandi.

— Qishloqdan yigirma besh yigit bo'lib yo'lga chiqqandik, — deydi Ro'ziboy ota. — Dastlab o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etdik. Ikki oy davomida oz-moz qurilishni o'rgangach, urush bo'layotgan joylarga olib

ketishdi. Sovuq, qishning izg'irini etni teshaman deydi. Biz — barcha qishloqdoshlar bir vuzvoda edik. Ular orasida dusman o'qiga duchor bo'lganlarni ko'rdik... Olov ichidan omon chiqish oson bo'lgani yo'q. O'zim ham ikki marta yaralandim. Tuzalgach, yana urushga jo'natilavdim. 1939-yilda harbiy xizmatni boshlagan bo'lsam, 1945-yil noyabrda uyga qaytdim. O't ichida qancha do'stlarim jon fido qildi. Olovli, qonga to'la okoplarda qolib ketgan vaqtlarimda, shu yerlarda qolib ketamanni, deb ko'p o'yarlardim. Bir martagina bo'lsa-da, qishlog'imni ko'ramanni, deya o'ylarim botirdim.

Farmonda 2026-yilda 4,3 milliard kVt-soat elektr energiyasi va 2,8 milliard metr kub tabiiy gazni iqtisod qilish belgilanmoqda. Bunga iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlari samaradorligini yanada oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish orqali erishish ko'zda tutilgan.

Hujjatda joriy yilda energiya samaradorligi bo'yicha dastur va aniq chora-tadbirlar asosida 2,6 milliard kVt-soat elektr energiyasi, 932 million metr kub tabiiy gazni yakka tartibdagi va ko'p kvartirali uylar, ijtimoiy soha obyektlari, xo'jalik subyektlarida iqtisod qilish va yirik sanoat korxonalarida kesimida bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan energiya resurslari tejashdagi kamaytirish hisobiga 1,6 milliard kVt-soat elektr energiyasi va 553 million metr kub tabiiy gazni tejashga erishish ko'zda tutilmoqda, — deydi energetika vazirining birinchi o'rinbosari Baxtiyor Mamatkarimov.

Shuningdek, 1,3 milliard metr kub gaz yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarining qo'shimcha ishlab chiqarishi, 35 million metr kub gaz

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Nuqtayi nazar

Inson zoti borki, orzu-havas qiladi, yuksak marralarni ko'zlab reja tuzadi, oila quradi, yangi kun, kelajak uchun poydevor yaratadi. Ammo bu jarayonda o'zgarimas bir haqiqat borki, sog'lig'imiz mustahkam bo'lmasa, ularning hech biri ma'noga ega bo'lmaydi, tatimaydi.

Darhaqiqat, sog'liq shunchaki ne'mat emas, u, avvalo, ma'no-mohiyat nuqtayi nazaridan hayotimiz ustuni, qolaversa, jamiyat barqarorligi, iqtisodiy qudrat va davlat taraqqiyotini tutib turgan strategik poydevordir. Shu bois, bugungi global kun tartibida sog'liqni saqlash tizimi oddiy xarajatlardan bandi emas, balki inson kapitaliga yo'naltirilgan eng muhim investitsiya sifatida talqin etilmoqda. Zero, aynan sog'lom insonlarga kuchli iqtisodiyot, barqaror jamiyat va raqobatbardosh davlatning eng asosiy kuchidir.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda erta o'lim holatlarining 70 foizgacha qismi yuqumli bo'lmagan kasalliklar bilan bog'liq. Erta tashxis va sifatlari birlamchi tibbiy yordam orqali ulardan sezilarli qismining oldini olish mumkin. Jahon banki tadqiqotlari ko'rsatadiki, tibbiy xizmatlar sifati va ulardan foydalanish imkoniyati ortishi mehnat unumdorligini 10-15 foiz oshiradi.

Bundan tashqari, sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini faol qo'llayotgan davlatlarda innovatsiyalarni joriy etish sur'ati yuqori, bunday davlatlarda byudjet yuklamasi 20 foizgacha kamaymoqda.

Shunday ekan, tibbiy xizmatlar sifati oshirish, sohaga xususiy sektorni jalb etish va tibbiy faoliyatni letsenzialash masalalari tor sohaviy siyosat doirasidan ancha keng. Bular aholi umri davomiyli, iqtisodiy faolligi va

davlat raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tizimli omillardir.

Mamlakatimizda 2016-yilgacha sog'liqni saqlash tizimi ko'p jihatdan miqdoriy ko'rsatkichlarga yo'naltirilgandi. Rasmiy jihatdan keng tarmoqli tibbiyot muassasalari mavjud bo'lsa-da, ularning amaliy samaradorligi cheklangan edi. Ko'plab tibbiyot tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi eskirgan, zamonaviy diagnostika uskunalarini yetishmasdi. Yuqori texnologiyali tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyati haqida gapirmasa ham bo'ladi. Kadrlar masalasida tizimli muammolar saqlanib qolgan.

Vaziyat 2016-yildan tubdan o'zgarishni boshladi. Aynan shu davrdan boshlab sohada rasmiy ko'rsatkichlar emas, balki tibbiy yordamning haqiqiy sifati va inson manfaatlariga yo'naltirilgan izchil transformatsiya jarayoni yo'lga qo'yildi. Mazkur jarayonda bir qator strategik hujjatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Jumladan, Prezidentimizning 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni sohani chuqur modernizatsiyalash uchun mustahkam asos bo'ldi. Hujjat doirasida tizim faoliyati qayta ko'rib chiqilib, markazga bemor va ko'rsatilayotgan xizmat sifati qo'yildi.

Bundan bir yil oldin qabul qilingan yana bir muhim hujjat — davlatimiz rahbarining 2017-yil 29-dekabrda "Xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida"gi qarori esa raqobatbardosh tibbiy muhiti shakllantirishda

"Taqdimotda belgilab olingan taklif va vazifalarni hayotga tatbiq etish maqsadida shu yil 5-may kuni Prezidentimizning "Tibbiyot sohasida xususiy sektorni qo'shimcha qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Sog'liqni saqlash tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari e'lon qilindi.

yangi bosqichni boshlab bergan edi. Natijada tibbiy faoliyatni letsenzialash tartiblari sezilarli darajada soddalashtirildi, xizmatlar sifati bo'yicha shaffof va yagona talablar joriy etildi. Bu esa xususiy sektorning salmoqli qismini soyadan chiqarib, uni umumdavlat sog'liqni saqlash tizimiga integratsiya qilish imkonini berdi. Muhimi, so'ngisi o'n yil ichida sog'liqni saqlashning mutlaqo yangi modeli shakllandi.

Sohada kechayotgan yangilanishlar, aholi talabi va zamon talablariga moslashish yo'lidagi islohotlar alohida taqdimot va videoselektor yig'ilishlarida, Prezidentimizning hududlarga tashriflari chog'ida muntazam tahlil qilib borilmoqda. Jumladan, joriy yil 1-may kuni bo'lib o'tgan taqdimotda tibbiy xizmatlar sifati va xususiy sektorning o'rni bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Unda aholiga malakali va zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish, sohada boshqaruv samaradorligini oshirish, xususiy sektor imkoniyatlaridan kengroq foydalanish hamda hududlarda tibbiyot infratuzilmasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha izchil ishlar qilinayotgani qayd etildi.

INSON SALOMATLIGI — DAVLAT TARAQQIYOTINING STRATEGIK POYDEVORI



Taqdimotda belgilab olingan taklif va vazifalarni hayotga tatbiq etish maqsadida shu yil 5-may kuni Prezidentimizning "Tibbiyot sohasida xususiy sektorni qo'shimcha qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Sog'liqni saqlash tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari e'lon qilindi.

Sohada xususiy sektorni qo'shimcha qo'llab-quvvatlashga qaratilgan farmon bilan ushbu yo'nalishda asosiy maqsadlari belgilab berildi. Unga ko'ra, endilikda xususiy klinikalar

davlat tibbiyot muassasalari bilan teng huquqli hamkoraga aylanmoqda. 2030-yilga borib, tibbiy xizmatlar ko'rsatishda xususiy sektor ulushini 30 foizga yetkazish belgilandi. Bu nafaqat davlat zimmasidagi yukni kamaytirish, balki sohaga investitsiya va zamonaviy menejmentni olib kirish demakdir.

Hujjatning yana bir muhim jihati shundaki, 2026-yil 1-iyuldan boshlab ushbu klinikalarga davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bemorlarga dolovlarga ruxsat beriladi. Endi bemor o'zi istagan,

sifat yaxshiroq bo'lgan shifoxonani tanlaydi, pul esa Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi orqali o'sha shifoxonaga o'tkaziladi. Bu tibbiyot muassasalari o'rtasida bemor uchun haqiqiy ijrobyi raqobatni boshlab beradi.

Yana bir muhim jihat. 2027-yil 1-maydan boshlab akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat tibbiyot tashkilotlariga inson a'zolarini transplantatsiya qilish huquqi berilmoqda.

Farmon doirasida belgilangan tadbirlarning o'z muddatida amalga oshirilishini ta'minlash, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati yaxshilash, tibbiy faoliyatni litsenzialash va akkreditatsiyalash tizimining shaffofligini oshirish hamda uni bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida Prezidentimizning "Tibbiyot sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham imzolandi.

Qaror bilan 2030-yilga qadar 3000 dan ortiq davlat tibbiyot muassasasini litsenzialash talablariga moslashtirish; barcha davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari uchun yagona talablar o'rnatish; tibbiyot tashkilotlarining axborot tizimlarini yagona talablar asosida raqamli sog'liqni saqlash platformasiga integratsiya qilish; tibbiy xizmatlarni ko'rsatish jarayonlariga kamida 75 ta milliy akkreditatsiyalash standartini joriy qilish; ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar va ularning sifati elektron tizim orqali nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish; tibbiyot tashkilotlari faoliyatini litsenzialash va akkreditatsiyalash tartiblarini takomillashtirish orqali ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati oshirish kabi asosiy maqsadlar belgilandi.

Umuman, mazkur hujjatlar yaqin yillarda shifoxonalardagi navbatlarni kamaytirish va inson qadrlarini tibbiy xizmatlar misolida yanada yuksalishiga poydevor bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

Nargiza ABDULLAYEVA,
Samarqand davlat tibbiyot
universiteti prorektori



TAMADDUN



tafakkuri

Bu eksponatlarning har biri — buyuk o'tmish va madaniyatimiz, milliy o'zligimiz timsoli ekanini ta'kidlash lozim. Ularning barchasi zamonlar sinovidan mardona o'tib kelayotgan xalqimiz, millatimizning ongu tafakkuri, bunyodkorona mehnati, noyob mahorati haqida so'zlaydi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti



Yangi O'zbekiston ruhi

DUNYONING YANA BIR MO'JIZASI

Qadim va tabarruk zaminimiz bag'rida ulkan maqsadlar bilan boshlangan, har bir kuniga yuraklar qo'ri to'kilgan, mehr buloqlaridan suv berilgan, e'tiqod va sadoqat nurlaridan yog'du sochilgan ulkan bunyodkorlik loyihasi nihoyasiga yetdi. Bu yaratuvchanlikni insoniyat va Vatanimiz tarixi sahifalariga hech mublag'asiz, faxr bilan ASR VOQEASI sifatida qayd etish mumkin.



Munavvara USMONOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

Qariyb to'qqiz yil davom etgan mashaqqatli, ammo sharafli mehnat, izlanish va fidoyilik samarasi o'laroq, mamlakatimiz yetakchisining tashabbusi va alohida e'tibori bilan yurtimiz osmon ostida yana bir buyuk ma'rifat maskani — Islom sivilizatsiyasi markazi qad rostladi. Islom sivilizatsiyasi markazi... Ha, bir marta, faqat bir marta bu maskani ziyorat qilgan insonning yuragida Vatan uyg'onadi, millat uyg'onadi, hayrat va iftixor tuyg'ulari jo'sh uradi.

Toshkentning tabarruk go'shasida, Hazrati Imom majmuasi bag'rida joylashgan bu maskan nafaqat mahabati, balki mohiyati bilan ham ulkandir. Uning bir nigohda ko'zga sig'maydigan hududi, ko'kka yondosh va qarindosh gumbazi hamda nihoyatda mukammal ishlangan shakli, buyuk bobolarimiz aytib ketganlaridek, millatimiz qudratidan so'zlab turadi. Nazarimizda, bu yerga qadam qo'yg'an kishi o'zidan, o'zining kundalik oddiy hayotidan uzqlashadi. Go'yo vujudiga nomini da'f'atan anglay olmagan qandaydir qudrat quyilib kelayotgandek bo'ladi. Quyi qavatda kishi o'zini umidlar ostonasida turgandek his qiladi. Yuqoriga ko'tarilgani sari qalbidagi qudrat yanada kuchli sezila boshlaydi. Muzei zallariga fayz bag'ishlab turgan nodir meroslar go'yo har nafasda: "Biz sening ildizimiz", deb shivirlayotgandek tuyuladi. Har bir ashyo, har bir bitikka inson faqat ko'zi bilan emas, balki yuragi bilan ham bog'lanib qoladi. Muhtasham kutubxonaning o'zi esa bu mo'jizaviy o'lamdagi yana bir muazzam dunyodir. Kutubxonaning asosiy boyligi bo'lgan minglab kitoblar va elektron manbalar ajdodlarimizning tafakkur qudrati naqadar salmoqli ekanini namoyon etadi. "Bizning millat sifatidagi qudratimiz faqat mehnatkashligimizdagina emas, balki ma'naviyatimiz va ma'rifatimizdadir...". Azaldan tafakkurimizda yashab kelgan bu fikr kutubxonada ming chandon mustahkamlanadi. Markaz devorlariga naqshlangan muqaddas o'yatlar va hadislardan qalblarga nur inadi. Ular o'qiganlarni eziglikka, bag'rikenglikka, halollikka va yuksak insoniy tuyg'ular bilan yashashga chorlovchi donishmand muallimlardir. Har bir naqsh, har bir yozuvning o'zi benazir ustoz.

Ulug'bek portali sayohatchilar uchun go'yo ilm olamining muazzam darvozasidagi tuyuladi.

Samarqanddagi Registon maydoni va Ulug'bek madrasasi an'analarini sirli dargohda turganday his etadi. Naqshinkor eshiklarda yillar davomida sayqallanib borgan va vaqt sinoviga bardosh bergan o'zbek hunarmandchiligining nozik didi hamda yuksak mahorati aks etadi. Zal atrofini qurshab turgan ravoqlar shunchaki me'moriy elementlar emas, balki har biri bir tarix, bir taqdir va bir davrning shakllarga muhtalangan nafasidir. Ulami kuzatari ekansiz, rangtasvirlar orqali o'timishimizga buyuklik maqomini baxsh etgan allomalimiz va boshqa tarixiy shaxslar tasavvurimiz ko'zgidagi gavdalanadi. Ularning unutilmas siyosi, kitob, ilm va boshqa shakllarda qoldirgan merosi go'yo bizga yana bir bor topshirilatayotganday o'zimizni burchli his qilamiz.

Birinchisi va Ikkinchi Renessans davrlari go'yo bir-biriga qo'l uzatganday. Bu yerda tafakkur osmonimizning yulduzlari — Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Imom Buxoriy va Imom Termiziy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning siyosi nur sochib turadi. Ularning nigohidagi donishmandlik, insoniyatga haroratli mehr va yuksak ruh bizi bu buyuk ajdodlarimiz bilan faqat jonimiz va qonimizdagina ayon bo'lgan ko'rinnas rishtalar orqali yanada mahkam bog'laydi. Muhammad Xorazmiy go'yo raqamlar tilida yashash qoidalarini va rivojlanish omillaridan saboq berayotgandek tuyuladi. Uning algebraga asoslangan tafakkuri bugun ham taraqqiyotni boshqarib turibdi. Ahmad Farg'oniy bobomizning tafakkur kuchi nafaqat ona zaminimiz, balki butun Sharq uchun xizmat qilgan. Dehqonchilik ham uning ilmiya asoslangan tavsialari bilan rivoj topgan. Imom Buxoriy va Imom Termiziy kabi allomalarning ilmiy zahmati hosilasi bo'lgan bu bebaho meros islom olami uchun dono mudarris vazifasini o'taydi. Abu Ali ibn Sino nafaqat tabib, balki ulug' mutafakkir hamdir. Uning asarlari inson vujudini va ruhining bir butunligini uqtiruvchi va bunga ishoniruvchi muhim manba sifatida namoyon bo'ladi. Shonsharaf zalida inson faqat tomoshabin bo'lib qolmaydi. U bu yerda buyuklik, sabr, ilm va inson aqlining cheksiz imkoniyatlariga guvoh bo'ladi.

Alloma Abu Rayhon Beruniy siyosati go'yo koinot sirlari haqida pichirlab turganday. U oddiy asboblar bilan Yerning o'lchamini aniqlab, cheksizlikni anglashga intilgan inson tafakkurining ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Uning qarashlarida zahmatga bardosh bergan iroda, qiyinchiliklardan g'olib kelgan matonat mujassam. Yonida esa Jaloliddin Manguberdi — jasorat va or-nomus timsoli. Uning qiyofasida beqiyos shiddat, qorachiqilarida esa ozodlik uchun yongan olov bor. U tarixda faqat jangchi sifatida emas, balki Vatanga sadoqat va millat hurligi uchun kurashning tirik namunasi sifatida abadiy qolgan. Muzeysiga muhtashamlik baxsh etib turgan yana bir betimsol siymo bor: bu Sohbiqiron Amir Temurdur. Uning qiyofasida kuchli sarkardalarga xos salobat va jasorat, nigohida esa buyuk davlat barpo etish



maqsvadi bilan bog'liq dovyuraklik aks etadi. U barpo etgan imperiya faqat keng hududlar bilan emas, balki adolat, qat'iy tartib va ilm bilan ham mustahkamlangan edi.

Zal ravoqlaridagi yana bir nozik, ammo teran ma'naviy olam — tasavvuf ruhi inson qalbinin osoyishtalik olamiga olib kiradi. U ziyoratchi qalbinin abadiyat va o'tkinchilik, fano va baqo haqidagi teran fikrlarga tutashtiradi. Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy va Najmiddin Kubro kabi mutasavviflarning ilmiya tayanib chizgan ruhiy yo'llari orqali inson qalbinin poklash va ruhini yuksaltirish kabi pokiza tasavvur olamlariga kirib boriladi. Ular so'z bilan emas, qalb bilan ta'lim bergan buyuklar edi.

Yuqorida esa yulduzlar tilini anglangan ulug' zot — Mirzo Ulug'bek siyosini namoyon bo'ladi. U barpo etgan rasadxona va tuzgan jadvallar go'yo osmon bilan yer o'rtasidagi sirli bog'liqlik kalitidek tuyuladi. Uning ilmi millat va xalq tafakkuri yuksalishi yo'lida hech qachon tanaffus qilmay, toliqmay va jonnisorlik bilan xizmat qiluvchi sadoqatli ilmdir. Qadim va qilichni birlashtira olgan zot — Zahiriddin Muhammad Bobur qiyofasini men ziyoratgohdagi yana bir ziyoratgoh deb ta'riflagim keladi. Uning siyosida sof'inchga tobe bo'lmagan kuchli iroda aks etgan. "Boburnoma" sahifalari go'yo uning hech kimkiga o'xshamagan itziroblil kechinmalari, barcha yonishi, tavallo va intizorliklarini bag'rida avaylab, bugungacha olib kelganday. Markazga ziyob bag'ishlab, zaldan zalga o'tayotgan ma'rifat karvonini g'azal mulki sultoni Alisher Navoiy siyosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U so'zga jon bergan, tilga qanot baxsh etgan buyuk bobomizdir. Uning ijodida nafaqat she'riyat, balki butun turkiy millatning ruhi mujassam.

Zalda og'ir, ammo sharafli bir sukut bor — bu jadidlar sukuti. Ular ilm, ma'rifat va ozodlik uchun kurashgan, ammo zamon va tuzum shafqatsizligi, istibdod zulmi qurboniga aylangan buyuk ziyolilardir. Ularning nigohida hurlik orzusi, yuzida — qat'iyat, taqdirida esa fidoyilik mujassam. Bu suratlar shunchaki chizilmagan, ular his qilingan. O'zbekiston xalq rassomi Alisher Aliqulov boshchiligidagi ijodkorlar bu chizgilarga

jon bag'ishlagan. Har bir chiziqda mehnat, har bir rangda fikr mujassam.

Sayohat davom etadi. Markazning qoq yuragida shunday maskan bor, unga qadam qo'yg'an insonning odimi beixtiyor sekinlashadi, iloji boricha sokin bo'lgisi keladi. Bu — Qur'oni karim zali. Zal markazida esa butun islom olamining bebaho ma'naviy durdonasi — VII asrda qo'lida ko'chirilgan mashhur Usmon Mus'hafi turibdi. Uning sukutida asrlar ovozi mujassam. Hazrati Usmon ibn Affon davrida muqaddas Qur'oni asrab qolish va yagona shakliga keltirish maqsadida olti nusxada ko'chirilgan. Bu nusxalar islom dunyosining turli hududiga tarqatildi. Ammo ulardan biri, eng azizi xalifaning o'zida qoldi. U bu mus'hafni nafaqat saqladi, balki uning ruhi bilan yashadi. Uni doim mutolaa qildi, undan nur oldi. Lekin vaqt o'tib, taqdirning og'ir sinovlariga duchor bo'ldi. 656-yili Madinada isyon ko'tarildi va isyonchilar Xalifa Usmonning uyiga bostirib kirdi. Aynan shu paytda u Qur'on tilovat qilayotgan edi. Shu vaqtda isyonchilar xalifani qilich bilan yaralab, halok qildi. Hazrati Usmonning mubarak qoni aynan o'sha kitobga sachradi. Bu voqea tarixda o'chmas iz qoldirdi. Xalifaning qoni aynan o'zi mutolaa qilayotgan mus'haf sahifalariga tomidi. Bu islom tarixidagi oddiy voqea emas, balki ilohiy kalomga sadoqat va iymon yo'lidagi qurbonlikning abadiy ramzi edi. Bugun siz ko'rib turgan mus'hafda ham ana shu qon dog'lari saqlanib qolgan. Ular — tarix guvohi, sukut ichidagi buyuk haqiqatdir. Bu haqiqatlarni eshitib, asrlar davomida qanchadan qancha insonning qorachig'ida yosh halqalangan bo'lsa, ayni damda ham ziyoratchilar bu tarixni ko'zida yosh bilan tinglamozq.

Markazdagi devorlarni shunchaki devor deb atagib kelmaydi. Chunki ular — vaqning o'zginasi. U — o'timishdan kelajakka cho'zilgan 250 metrli xotira yo'li. Bu devor oldidan o'tgan inson shunchaki yurmaydi, balki vaqt bo'ylab sayohat qiladi. Chunki bu yerda 3000 yillik davlatchilik tarixi jonlanadi. Miniaturalar va mahobatli rangtasvirlar orqali o'tmish go'yo qadam tashlab, bugungacha kelib qolgandek bo'ladi. Devor bo'ylab joylashgan eksponatlar, qadimiy tangalar, xaritalar va interaktiv namoyishlar esa bu sayohatga

jon bag'ishlab, ta'sirchanligini oshiradi. Bu yo'l eng qadimgi manbadan boshlanadi. Islomdan avvalgi davr — yillar osha gurkirab ketgan insoniyat daraxtining ildizlari, madaniyatning ilk nafasi. Bu yerda Baqriya, Xorazm, So'g'd, Chocho va Farg'ona kabi qadimiy o'lkalari o'timishdagi hayotini ko'z o'ngimda yana bir bor yashab o'tayotganday tuyuladi. Qadimgi savdo yo'llari esa taqdirni quyosh tarfaga yetaklab ketayotgan ko'rinnas ipardak tasvirlanadi.

Navoiy viloyati zaminidagi Sarmishsoy qoyatosh suratlari inson xotirasining eng qadimgi sahifalaridir. 8-10 ming yillik tarixga ega bu petrogliflar go'yo toshga muhtalangan hayotdir. Bu yerda minglab tasvirlar — ov, yashash uchun kurash va iroda kuchining turfa ko'rinishlari aks etgan. Ular garchi sadosiz bo'lsa-da, bu sassizlik ichida "biz ham bor edik" degan kuchli hayriy qiyofasini ko'z o'ngashadi. Qadimiy bug'u haykalchasi. Uch ming yillik tarixga ega bu bronza asar nafaqat betakror hunarmandchilik namunasi, balki inson qalbidagi bugun emas, balki azaldan mavjud bo'lgan go'zallik tuyg'usining nishonidir. Undagi nafislik go'yo zamonlarga bo'y bermasdan tirik qolgan. Bug'u timsoli esa turkiy xalqlar uchun azaldan hayot davomiyligi va avlodlar uzviyligining ramzi bo'lib kelgan. Bu obraz hatto adabiyotda ham yashaydi — Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asaridagi Ona bug'u singari.

Ajdodlarimizning turmush tarzi, mehnat manzaralari, orzulari va kurashlari turli videolavhalar orqali jonlanadi. Qadimgi shaharlar, hunarmandchilik, yozuv va san'at — barchasi yaxlitlik kasb etadi. Har bir chiziq katta bir xalq tarixining ajralmas parchasi bo'lib ko'rinadi. Bu devorda ozodlik uchun kurash ham bor. Qadim manbalarda tilga olingan To'maris, Shiroq va Spitamen kabi qahramonlarning jasorati zamonlar osha o'chmagan olov kabi qalblarga harorat beradi. Vaqt devori oldida inson bir ulug' haqiqatni anglab yetadi: biz faqat bugundan iborat emasmiz, balki ming yillar davomida shakllangan xotira, iroda va buyuk ruh merosimiz.

Sayohat yana davom etadi va biz yana bir buyuk zaminga qadam qo'yamiz. Bu — Qadimgi

Xorazm. U — sivilizatsiya gulxanining ilk uchqunlari sachragan makon. Dunyodagi eng qadimiy madaniy markazlardan biri sifatida tarix va bugun o'zining munosib o'rni ega. Bu yerda ilk shaharlar qad rostlagan, ilk yozuvlar paydo bo'lgan. Inson o'z tarixini yoza boshlagan. Qadimiy qal'alar esa tarixning turfa ko'rinishlarida yashab kelayotgan sodiq qo'riqchilaridek qad rostlab turibdi.

Xorazm — yer bilan subhat qurgan zamin. Bu yerda inson suvni boshqarishni o'rgangan, Amudaryodan suv chiqarib, qaqragan yerga hayot baxsh etgan. Dehqonchilik faqat kasb emas, balki tiriklik manbai bo'lgan. Bu zalda yana bir muqaddas manba — "Avesto" sahifalari ham aks ettirilgan. Zardushtiylik ruhi, qadimgi shaharlar maketi, ossuriylar — bularning barchasi insonning hayot va o'lim haqidagi tushunchalarini yanada boyitib, teranlashtirib boradi. Rivoyatlarga ko'ra, Zardusht ham aynan shu zaminda tug'ilgan...

Ekspozitsiyada temuriy malikalari — Saroymulkxonim, Gavharshodbegim singari tarixiy shaxslarning er kishilar qatorida maskanga fayz baxsh etib turishi "Ayol — zaifa" qabilidagi biryuqlama qarashlar ustidan chiziq tortadi. Bu manzara yurtimizda ayol va ona maqomi hamisha baland bo'lganini yaqqol dalillaydi. Ekspozitsiyaning muhim jihati — u Ikkinchi Renessansdan keyingi davrni uzulish emas, balki davomiylik sifatida talqin qiladi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Qo'qon shaharlaridagi me'moriy obidalar, o'ziga xos adabiy muhit va ilm-fan an'analari bu tarixiy jarayonning uzluksizligini ta'minlab kelgan. Xususan, Qo'qonda shakllangan adabiy muhit, Amir Umarxon davrida ijod qilgan Nodira, Uvaysiy, Dilshod Barno kabi shoirlar, Xivada Muhammad Rahimxon va Islomxo'ja kabi islohotchi arboblari faoliyati bu davrni faqat siyosiy emas, balki madaniy-ma'rifiy jarayon sifatida baholashga asos beradi. Shuningdek, ekspozitsiyada Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari vakillari — Maxtumqul, Fuzuliy, Abay, Toqtoq'ul, Sadrididdin Ayniy, Ajiniyov kabi mutafakkirlar merosining ham qamrab olinishi xalqimizga xos bag'rikenglik fazilatini yaqqol namoyon etadi. Bu esa zaminimizda "do'st" va "qardosh" tushunchalari hamisha alohida qadrga ega bo'lgani, shuningdek, bu tushuncha davrlar o'tishi bilan birga ulug' ayib borganini tasdiqlaydi.

"Yangi O'zbekiston — Yangi Renessans" ekspozitsiyasi ushbu tarixiy davomiylikning mantiqiy yakuni sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerda mamlakatimizda so'nggi yillardagi islohotlar — iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ta'lim va madaniyat sohalaridagi o'zgarishlar yaxlit tizim sifatida ko'rsatiladi. Barcha jarayonni birlashtiruvchi asosiy g'oya esa inson qadriini yuksaltirishdir. O'timish buyuk millatni porloq kelajak sari boshlashdek ulug' maqsad yo'lida erishilayotgan hayratomuz muvaffaqiyatlar o'timishdan va shonli tarixdan kuch olib chiqqan sayyohning ko'z o'ngida yangi orzu uflarini ochadi. Ayniqsa, bu sayohat mana shu markazda mujassam bo'lgan shonli tarix va bugunning farzandi, uning ajralmas bir parchasi bo'lsa, ko'ksida o'zidan-da kuchli, o'zidan-da maqsadli ulkan va o'zidan-da orzulari yorqin butunlay boshqa bir yurak uyg'onadi.

Millatning buyuk farzandlari faqat o'zlari yashagan davrdagina emas, balki o'zlaridan keyin ham butun insoniyatni yaxshiliklar atrofida birlashtiradi degan fikrni ko'p eshitganmiz. Tarixda va bugunimizda millatimizga kuch-qudrat, faxr va iftixor baxsh etib kelgan ulug'lar jam bo'lgan bu buyuklik maskani ham nafaqat Vatanimiz — O'zbekistonning, balki eziglikka intiluvchi butun insoniyat uchun yaxshilik mehvari bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Sayohat yana davom etadi va biz yana bir buyuk zaminga qadam qo'yamiz. Bu — Qadimgi

E'TIROF

DOVRUG'I DUNYODA DOSTON

Barri FOR, Seyshel Respublikasi tashqi ishlar va diaspora vaziri:



— Ikkilansadan aytalolamanki, markazni barpo etish tashabbusi uzoqni ko'ra olish iqtidorining amaliy natijasi. Menda bu yerda bir kun emas, balki bir necha kun qolib, sivilizatsiyani yanada chuqurroq o'rganish istagi paydo bo'ldi.

Markazda namoyish etilayotgan har bir eksponat alohida e'tiborga loyiq. Ayniqsa, taxminan 3000-yil avval yaratilgan bug'u haykali katta hayrat uyg'otdi. Qadim zamonning bunday san'at asari bizning davrgacha yetib kelishi va uni saqlab qolganingiz bu — katta yutuq.

"Faxriy mehmonlar kitobi"da bunday bitik qoldirdim: "Markaz O'zbekiston xalqiga va butun dunyoga taqdim etilgan ulkan sovg'a!".

Helen Sand ANDRESEN, Norvegiyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi:



— O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi men kutganimdan ancha yuqori darajada ekan. Majmua yuksak did va puxta o'ylangan yondashuv asosida barpo etilgan yaqqol sezilib turadi. Eng muhimi, bu maskan barcha yosh toifalarini — bolalardan tortib, keksa avlod vakillarigacha o'ziga jalb qila oladi. Bu yerda har kim o'zi uchun qiziqarli va mazmunli jihat topadi. Ayniqsa, interaktiv yondashuv tashrif buyuruvchini faol o'rganishga undaydi.

Men ilgari ushbu mintaqada bir necha yil yashaganman va Markaziy Osiyo tarixi haqida yetarlicha tasavvurga egaman deb o'ylardim. Biroq bugungi tashrif davomida juda ko'p yangi ma'lumotlarga ega bo'ldim. Shu jihatdan, markaz tarixiy merosni asrab-ayaylash va uni zamonaviy shaklda kelajak avlodlarga yetkazishning yorqin namunasi.

Fikrimcha, bu maskan muhim bir haqiqatni yaqqol namoyon etadi: taraqqiyot, ilm-fan va bilim tinchliksiz mavjud bo'la olmaydi. Jamiyatda barqarorlik va insonlar uchun munosib sharoit yaratilgan bo'lishi zarur — oddiy mehnatkashlardan tortib olimgalarga. Aynan shunday muhitda insoniyat taraqqiy etadi: hamkorlik orqali, o'timishni unutmasdan, tarixni asrab, birgalikda oldinga intilish orqali.

Jordi GREYG, Buyuk Britaniyaning The Independent nashri bosh muharriri:



— Ekspozitsiyalar jonli va qiziqarli. Olim, san'atkor, faylasuflar va din tarixi bir-biri bilan uzviy bog'liq holda namoyish etilgan maskan mohiyatini o'ziga xos taqdim qilgan. Ayniqsa, interaktiv texnologiyalar, ekranlar va harakatlanuvchi eksponatlar orqali tarixni nafaqat ko'rish, balki uni his qilish imkoniyati men uchun juda qiziq bo'ldi. Bu esa muzeyni yanada tushunarli va ta'sirchan qiladi.

Shuningdek, Londonda saqlangan va aslida shu yerda yaratilgan noyob ashyo va matolarning o'z vataniga qaytarilganini ko'rish juda quvonarli holat. Bu kabi yondashuv madaniy merosga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Muhammad Shafriy Muhammad RAHIM, Malayziya texnologiya universiteti professori:



— Markazda ma'lumotlar juda aniq, tushunarli va yuqori darajada taqdim etilgandir. Hikoya qilish uslubi orqali Markaziy Osiyoda islom tamadunining rivojlanishi izchil ochib berilgan va bu tashrifni oddiy tomoshadan ko'ra chuqur bilim olish jarayoniga aylantirdi. Shu bilan birga, markazda jamlangan materiallar hajmi va ularning tizimli taqdim etilishi uni xalqaro darajadagi muhim ilmiy manba sifatida baholash imkonini beradi.

Ushbu maskanni xalqaro ilmiy platforma sifatida baholash mumkin. Chunki bu yerda tamaddun taraqqiyotiga oid juda ko'p va qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Bu kabi yondashuv bugungi va kelajak avlod uchun ham katta ahamiyatga ega.

Markazning Guinness rekordlar kitobiga kiritilgan munosib e'tirof. Chunki bu yerda tarixning mazmuni va taqdim etilish uslubi, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilishi uni boshqa muzeylardan ajratib turadi. Yaratilgan imkoniyatlar insonga nafaqat ma'lumot beradi, balki uni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Boqiy meros



Jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otayotgan ushbu maktab ma'naviy-ma'rifiy faoliyati, ahamiyati va ayni paytdagi o'rni haqida xattot Habibullo Solih fikrlari bilan qiziqdik.

ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI HUZURIDA XATTOTLIK MAKTABI TASHKIL ETILDI

— Islom sivilizatsiyasi markazi huzurida faoliyat boshlagan Xattotlik maktabi bugun jamoatchilik va yoshlarni qay darajada qiziqitira olyapti?

— Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo jamoatchiligi e'tiborida ulkan megaloyiha. Uning huzurida ochilgan Xattotlik maktabi esa ajdodlarimizdan meros bo'lgan yozuv san'atini qayta tiklash, asrab-ayaylash va yosh avlodga yetkazishga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, xattotlik san'ati yo'qolib ketmasligi, balki rivojlanishi va keng ommaga o'rgatilishi shart. Ana shu ezu g'oya asosida mazkur maktab faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bugun maktabga qiziqish katta. Rasman faoliyat boshlaganiga hech qancha vaqt o'tmagan bo'lsa-da, ro'yxatdan o'tganlar soni allaqachon mingdan oshdi. Ular orasida yoshlar, o'rta yoshlilar, shuningdek, katta yoshdagilar ham bor. Bu xattotlik san'atiga qiziqish jamiyatning turli qatlamlarini qamrab olganini ko'rsatadi.

— Qadimiy san'atga asoslangan maktab qanday tarixiy meros va ma'naviy qadriyatlarga tayanadi?

— Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk xattot va allomalardan jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ular yaratgan qo'lyozma va yozuv namunalari bugun ham o'z ahamiyatini saqlab kelmog'ida. Shu nuqtayi nazardan, xattotlik san'atini qayta tiklash faqat madaniy tashabbus bo'lib qolmay, tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq muhim jarayondir. Maktab aynan shu boy merosni qayta jonlantirish va tizimli ravishda avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi.

— Ta'lim jarayoni qanday mazmun va uslublariga asoslanadi? Uning o'quvchilar hayotiga ta'siri haqida nimalarni aytish mumkin?



— Albatta, maktabdagi ta'lim jarayoni an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar uyg'unligiga asoslangan. Bu yerda nafaqat xat yozish texnikasi, balki husnixat madaniyati, estetik did va sabr-toqat kabi fazilatlardan ham shakllantiriladi. Ta'limning bepul ekani ham keng jamoatchilik uchun katta imkoniyatdir. Turli kasb egalari, ayniqsa, ilgari bu san'atni o'rganish imkoniga ega bo'lmaganlar bugun ushbu darslarda faol ishtirok etmoqda.

Ayrim holatlar esa maktabning chuqur ma'naviy ta'sirini yaqqol namoyon etadi. Masalan, nuroniylardan biri uzoq yillik orzusini amalga oshirish maqsadida maktabga kelib, katta hayajon bilan ta'lim jarayoniga qo'shildi. Bu kabi misollar xattotlik maktabining inson hayotida

ruhiiy uyg'unlash va ma'naviy qanoat manbai bo'layotganini ko'rsatadi.

— Maktabning xalqaro maydondagi o'rni va nufuzi haqida qanday fikr bildirasiz?

— Maktab faoliyati xalqaro miqyosda ham katta qiziqish uyg'otmoqda. U xalqaro xattotlik maktabi sifatida e'tirof etilib, o'quv jarayonini xorijiy mutaxassislar ham yuqori baholadi. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tashabbusning ahamiyatini yanada oshirdi. Bu esa O'zbekistonda madaniy merosni asrash va dunyo miqyosida targ'ib etish borasidagi ishlar samaradorligini ko'rsatadi.

Maktabning ochilish marosimida ishtirok etgan xalqaro ekspertlar ham davlatimiz rahbarining

tashabbuslarini yuqori baholadi. Jumladan, Islom tarixi, madaniyati va san'ati tadqiqotlari markazi — IRCICA direktori Mahmud Erol Qilich islom xattotligining jahon madaniyatidagi o'rni, yuksak estetik va ma'naviy qimmatini alohida ta'kidladi. Turkiya qo'lyozmalar boshqarmasi direktori Jashqun Yilmaz esa Sulaymoniyah kutubxonasi saqlanayotgan nodir qo'lyozmalar haqida ma'lumot berib, ularning katta qismi O'zbekiston tarixi bilan bog'liq ekanini qayd etdi. Buyuk Britaniyadagi "Al-Furqon" Islom merosi jam'armasi direktori Sali Shahsuvoriy ham temuriylar davrini haqiqiy intellektual va madaniy uyg'unlash davri sifatida baholadi.

— Faoliyatni yanada rivojlantirish bo'yicha qanday istiqbolli rejalar ko'zda tutilgan?

— Kelgusida faoliyat ko'laminani yanada kengaytirish, zamonaviy va innovatsion ta'lim dasturlarini joriy etish rejalashtirilgan. Xususan, onlayn ta'lim platformalarini ishga tushirish orqali xorijiy o'quvchilarni jalb etish maqsad qilingan. Bu orqali xattotlik san'atini nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro miqyosda keng targ'ib qilish imkoniyati ham yanada oshadi.

— Qiziquvchan yoshlarga qanday maslahatlar berasiz?

— "Amallar niyatga bog'liqdir" degan hikmatda chuqur ma'no mujassam: insonning kelajagi uning niyati, kamoli esa amallari bilan belgilanadi. Bugun yurtimizdagi ulkan islohotlar, ma'naviy uyg'unlash va taraqqiyot jarayonlari ham ana shunday ezu niyatlar samarasi ekanini anglash qiyin emas.

Ajdodlarimiz, aziz avliyolar qoldirgan boy ma'naviy meros, ularning orzu-intilishlari va mehnatlari bugungi farovon hayotimizga mustahkam zamin yaratadi. Shu bois, har birimiz o'z sohamizda siddiqildan mehnat qilib, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishimiz zarur.

Durdona RASULOVA suhbatlashdi.

Tasnif

Ikkinchi Renessans ekspozitsiyasi Amir Temur hukmronligi va o'zbek xonliklari davridagi madaniy-ma'rifiy hayot haqida hikoya qiladi. Unda Sohibqiron davriga oid kashfiyotlar va ilmiy yutuqlar xaritasi namoyish qilingan. Bunda irrigatsiya-muhandislik kashfiyotlari, me'morchilik, kitobat, ilm-fan, islom ilmlariga oid kashfiyotlar alohida o'rin tutadi.



IKKINCHI RENESSANS EKSPOZITSIYASI

"Vaqt devori"da Amir Temur va temuriylar davrida yaratilgan qo'lyozmalardan olingan miniatyuralar, ularda aks etgan tarixiy shaxslar siyosini ko'rish mumkin. Shuningdek, turli eksponat, numizmatika namunalari, xarita, videorolik, interaktiv o'yinlar joylashtirilgan.

Zalda Shahrisabzdagi Oqsaroy, Dorus saodat, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbaralari maketi bor. Bronza shamdon nusxasi ham bir paytlar Amir Temur buyrug'iga asosan tabrizlik usta tomonidan yasalgan va Turkistondagi maqbaraga o'rnatilgan.

Ekspozitsiya uchun Amir Temur va Fransiya qiroli Karl VI yozishmalari nusxalari tayyorlangan. Ma'lumki, Ispaniya elchisi Klavixo Amir Temur bilan yuzma-yuz uchrashgan, esdaliklarida uni adolati hukmdor, ilm-ma'rifat homiysi sifatida tasvirlagan. Markaz va WOSCU mutaxassislari hamkorligida ushbu esdalikning sovg'abop nusxasi tayyorlangan.

Amir Temur sektorida 1533-yilda ko'chirilgan va ayni paytda AQSHning Baltimor universitetida saqlanayotgan "Zafarnoma" miniatyuralari, "Temur tuzuklari" qo'lyozmasining Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari institutida saqlanayotgan, XVIII asrga oid faksimile nusxalari, miniatyuralar qo'yilgan.

"Me'rojnom" asari 1434-yili eski o'zbek tilida, ammo uyg'un yozuvida yozilgan. Fransiya Milliy kutubxonasidan ushbu qo'lyozma

nusxasi olindi. Shohrux Mirzo sektoridan ushbu asarda keltirilgan miniatyura ham o'rin olgan.

Vitrinada Qur'oni karimning temuriy shahzoda Ibrohim sulton ko'chirtirgan, oltin suvi bilan bezatilgan nusxasini ko'rsatib. Muqaddas kitobning shahzoda tomonidan ko'chirilgan bir qancha qo'lyozmalari mavjud. Ulardan biri Nyu-Yorkdagi Metropolitan muzeyida saqlanadi. 2025-yil avgustda ushbu Qur'oni karimning bir faksimile nusxasi Erondagi Ostoni Quds kutubxonasidan olib kelingan.

Mirzo Ulug'bek sektorida sun'iy intellekt asosida yaratilgan loyiha bo'yicha maxsus ekrandagi ajdodimiz siyosini bilan to'rt tilda savol-javob qilish mumkin. Mirzo Ulug'bek zalida rasadxona maketi va interaktiv loyihasi, bu yerda ishlatilgan uskunalar, ushbu davrga mansub kulochilik buyumlari va qo'lyozmalar bilan tanishish mumkin.

Xuroson sektorida Rossiyadagi Sharq qo'lyozmalari institutida saqlanadigan Husayn Boyqar devonining faksimile nusxasi chop etilib, saqlanayotgan. Shuningdek, ekspozitsiyada Alisher Navoiy tasvirlangan miniatyuralar, shoir qo'lyozmalari, chop etilgan asarlari namoyish qilinmoqda.

2022-yilda WOSCU tomonidan dunyoda ilk bor Kamoliddin Behzodga tegishli deb qaraladigan 80 dan ortiq miniatyura to'planib, "Moniyi xijolatda qoldirgan Behzod" nomli kitob-albom chop etildi. Ekspozitsiyadan Behzodning Turkiyadan topilgan avtoportreti, miniatyuralari, qo'lyozmalarining faksimile nusxalari ham o'rin olgan.

Temuriy malikalarga bag'ishlangan zalda ularning davlat boshqaruvidagi mavqe ko'rsatilgan. Bibixonim qiyofasini ishlaganda Prezidentimiz tavsiyasiga ko'ra malikaning bosh kiyimi, kiyimlari rangi, bo'y-basti aynan ispan elchisi Klavixo tasvirlagandek bo'lishiga e'tibor

berildi. Gavharshodbegim, Teginabegim, Saroymulxonim monoglari ham tashrif buyuruvchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

Muzeyda Bobur va boburiylar merosiga ham alohida e'tibor qaratilgan. O'sha davrga oid qo'lyozmalar, qurol-aslahalar, shaxsiy buyumlar, chodir qismi, kiyimlar ko'rsatilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning maxsus ekranda sun'iy intellekt orqali jonlantirilgan siyosini ham keluvchilar bilan muloqotga kirishadi.

Aksariyat tarixchilar temuriylardan so'ng Ikkinchi Renessans o'z yakuniga yetgan deb biladi. Ammo izlanishlar shayboniylar, ashtarxoniyalar va boshqa sulolalar temuriylar davri madaniyatini davom ettirishga harakat qilganini ko'rsatadi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva singari shaharlarda yaratilgan obidalar, tarixiy, ilmiy va adabiy asarlarda ham temuriylar madaniyatiga taqaddim yaqqol sezilib turadi.

Ekspozitsiyada o'tgan asrning 70-yillarida turli mintaqalar bo'ylab namoyish qilingan, mashhur italyan kolleksioneri Ignazio Vokga tegishli o'zbek kashtalari kolleksiyasini ko'rish mumkin. Ayni paytda bu kashtalar O'zbekistondagi eng qadimiy kashtachilik namunalaridir. Bu yerdan Toshkent, Shahrisabz, Nurota, Samarqand kashtachilik maktabining XVIII-XIX asrlarga oid tarixiy durdonalari o'rin olgan.

Shuningdek, ekspozitsiyada Maxtumquli, Fuzuliy, Berdaq, To'g'ot'ul, Abay, Ahmad Donish, Mirzo Jalol, Sadriddin Ayniy, Ajiniyoz singari allomalardan merosiga ham joy ajratilgan.

Davlatoy MURODOVA, O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

JAMIYATNING O'ZINI ANGLASH JARAYONI

shaxs va davlat o'rtasidagi mas'uliyat muvozanati orqali qaror topadi

Dunyoda o'xshashi kam mahalla modeli davrlar dovonidan omon o'tib kelayotgan ko'ha va ayni vaqtda yangicha mazmun bilan boyib, jamiyat salohiyatini ichkaridan mustahkamlab, rivojlantirishga asoslangan o'ziga xos ijtimoiy tuzilmadir. Bugun mahalla iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotning boshlang'ich nuqtasi sifatida qaralmoqda. Davlatimiz rahbarining joriy yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ishlohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni doirasida belgilab berilgan asosiy vazifalar ana shu strategik yondashuvning mantiqiy davomidir.



Sharh



Asliddin ABDURAZZOQOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

orqali baholay oladi. Test va zamonaviy interfaol usullar orqali kasbiy moyillikni aniqlash mexanizmlari joriy etiladi. Zero, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida bilim bilan bir qatorda shaxsiy salohiyat, fikrlash uslubi, moslashuvchanlik darajasi hal qiluvchi omillardir. Ilmiy asoslangan diagnostika usullari esa o'quvchilarning qaysi yo'nalishda samarali faoliyat yuritishini aniqlashga xizmat qiladi. Erta kasbiy yo'naltirish tizimi hududiy rivojlanish bilan ham uzviy bog'liq. Har bir viloyatning sanoat profili, ishlab chiqarish salohiyati, xizmatlar bozori ehtiyoji inobatga olingan holda kadrlar tayyorlanadi. Shu bilan birga, "Kasblar shaharchalari" maktab, texnikum, mahalla va ish beruvchilar o'rtasida uzviy hamkorlik muhitini yuzaga keltiradi.

Bu borada ko'pincha e'tibordan chetda qoldirilgan yana bir jihat bor — muayyan kasbni rasmiy ta'lim muassasalarida emas, balki mustaqil ravishda, amaliy faoliyat jarayonida o'rganish amaliyoti. Qurilishda ishlayotgan yoshlar, xizmat ko'rsatish sohasida tajriba orttirayotganlar, ustaxonalarda, kichik korxonalarda, oilaviy biznesda mehnat qilayotgan minglab insonlar real malakaga ega bo'lsa-da, ularning bilim va ko'nikmalari ko'pincha hujjat bilan tasdiqlanmagan holda qolmoqda. Shu sababli bunday fuqarolar mehnat bozorida o'z salohiyatini to'liq namoyon eta olmaydi, barqaror ish topishda qiyinchiliklarga duch keladi, malakasiga mos daromadga erisholmaydi. Aynan mana shu muammo farmonda belgilangan malaka sertifikatlash tizimini joriy etish tashabbusining asosiy sabablaridan biridir.

2026-yildan boshlab har bir hududning sanoat ixtisoslashuvi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xususiyatlaridan kelib chiqib, 24 ta malakani baholash markazini tashkil etish rejalashtirilgan. 60 ta dolzarb kasb bo'yicha baholash vositalari ishlab chiqilib, ekspertizadan o'tkaziladi. Shu bilan birga, 120 nafar baholovchi ekspertning malakasi oshiriladi va professional ekspertlar korpusi shakllantiriladi. Mustaqil kasb o'rganib, moliyaviy imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun malakani baholash xarajatlari va vaucher tizimi asosida Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi maablag'lari hisobidan qoplanadi.

Aholiga 100 dan ortiq kasb bo'yicha mustaqil bilim olish imkoniyatini yaratadigan "Kasbiy rivojlanish platformasi" ishga tushirilmoqda. Platformada o'quv materiallari, videodarslar, simulatsion mashqlar joylashtiriladi hamda o'qish yakunida sertifikat berish tizimi joriy etiladi. Shuningdek, Yoshlar ishlari agentligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Migratsiya agentligi hamda Savdo-sanoat palatasining elektron platformalari yagona "Kasbiy rivojlanish platformasi"ga integratsiya qilinadi. Platformaning muhim jihatlardan biri o'rganilayotgan kasbni simulatsion mashqlar orqali ham egallash imkoniyatining yaratilishidir. Virtual muhitda ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish, texnik qurilmalar bilan ishlashni mashq qilish, xizmat ko'rsatish

Kasbiy yo'naltirishning erta bosqichda yo'lga qo'yilishi

Mehnat bozorida ko'zga yaqqol tashlanayotgan muammolardan biri o'sib kelayotgan avlodning kasb tanlash borasida aniq tasavvurga ega bo'lmasdan voyaga yetishidir. Aynan shu holat ularga erta bosqichdan qiziqishlariga ko'ra konkret ilmiy asosga ega yo'l-yo'riq berish, ya'ni kasbiy yo'naltirishni maktab davridayoq boshlash zaruratini yuzaga chiqardi.

aksariyati uzoq vaqt davomida oliy ta'limni yagona muvaffaqiyat mezonini sifatida qabul qilib kelgan. Oqibatda oliy ta'limga kira olmagun minglab yoshlar aniq kasbiy yo'nalishsiz qolib ketgan, vaqtincha ishlarga, norasmiy bandlikka yoki migratsiyaga yo'nalgan. Bu holat yoshlar salohiyatining to'liq namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilgan. Shu sababli farmonda yoshlarni texnikumlarga og'li va tizimli ravishda yo'naltirish alohida ustuvor vazifa sifatida

bo'lmagan, zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashishda qiyalayotgan qatlam uchun ham alohida imtiyoz va imkoniyatlar yaratish nazarda tutilmoqda. Unga ko'ra, 400 ming band bo'lmagan shaxs hamda kam ta'minlangan oilalarning ishsiz a'zosi kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitiladi. Band bo'lmagan shaxslar va ijtimoiy reyestriga kiritilgan oilalarning ishsiz a'zolari uchun kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik bo'yicha ta'lim beruvchi davlat hamda nodavlat

Farmonda bitiruvchilarning ishga joylashish jarayonlari ustidan avtomatlashtirilgan monitoring tizimini joriy etish ham belgilangan. Ushbu mexanizm orqali qaysi ta'lim muassasasining bitiruvchilari qayerda va qanday sharoitda ish boshlayotgani, qaysi yo'nalishlarda muammolar mavjudligi muntazam tahlil qilinadi. Bu ma'lumotlar asosida ta'lim dasturlarini takomillashtirish, yangi yo'nalishlarni oshish, mavjudlarini yangilash imkoniyati yaratiladi.

"Karyera" platformasi orqali 1,6 million talaba va bitiruvchi uchun kasb tanlash hamda ish topish imkoniyatini kengaytirish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, 50 mingdan ortiq ish beruvchini platformaga integratsiya qilish ko'zda tutilgan. Texnikum bitiruvchilari orasidan kamida 150 ming nafari uchun munosib ish topish sharoitlari yaratiladi. Mazkur tizim mehnat bozorida ishonch muhitini shakllantiradi. Bitiruvchi o'z bilim va ko'nikmalariga tayangan holda ish topishga ishonadi, ish beruvchi esa nomzodning tayyorgarlik darajasini aniq ko'ra oladi.

Kasbiy ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan real ishlab chiqarish muhiti bilan qanchalik uzviy ekaniga ham bog'liq. Mazkur yo'nalish doirasida kasbga o'rgatish uchun texnikum o'quvchilari ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlarini ko'lab-quvvatlash bo'yicha muhim soliq imtiyozlari joriy etilmoqda. Xususan, texnikum bitiruvchilarini va o'quvchilarini ishga qabul qilgan tadbirkorlarga o'quvchilarga to'lanadigan ish haqidan olinadigan ijtimoiy soliqni 1 foiz stavka bo'yicha to'lash huquqini 2030-yilgacha uzaytirish nazarda tutilgan. Ushbu mexanizm bo'yicha tegishli qonun loyihasi ishlab chiqilib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritiladi.

"Yangi O'zbekiston bunyodkorlari"

Bugungi iqtisodiy muhit tezkor o'zgaruvchanlik bilan xarakterlanadi. Ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilib, raqamli boshqaruv tizimlari kengaymoqda, xizmat ko'rsatish standartlari yangilanmoqda. Pedagoglar doimiy ravishda o'z bilimini yangilab bormasa, ta'lim tizimining real iqtisodiy jarayonlardan uzilib qolishi ehtimoli yuqori. Shuning uchun malaka oshirishni an'anaviy, davriy va formal jarayon sifatida emas, balki uzluksiz rivojlanish mexanizmi sifatida tashkil etish zarurati yuzaga kelgan.

Farmonga muvofiq, masofaviy va aralash shaklda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari uchun maxsus o'quv kontentlari ishlab chiqiladi. Kontentlar zamonaviy pedagogik metodlar, ishlab chiqarishdagi yangi texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish usullari hamda baholash mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Masofaviy va aralash shakl joriy etilishi ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan qiladi. Har bir pedagog o'z ish jadvali va shaxsiy imkoniyatidan kelib chiqib malakasini oshiradi. Uch yoshgacha farzandi bor, nogironligi mavjud, nafaqa yoshiga yetgan boshqaruv va pedagog kadrlar uchun ham sharoit yaratiladi. 2026-yil dekabr oyiga qadar mazkur toifadagi xodimlar ehtiyojiga ko'ra masofaviy yoki aralash shaklda malaka oshirish tizimi to'liq yo'lga qo'yiladi. Ta'lim sifatini oshirishda pedagog bilan bir qatorda texnikum rahbarining boshqaruv



belgilandi. Ushbu siyosatning markazida 11-sinf bitiruvchilari bilan individual ishlash mexanizmi turadi. 2026-yil 1-apreldan boshlab oliy ta'limga qiziqishi yuqori bo'lmagan o'quvchilarni aniqlash tizimi joriy etiladi. Mazkur tizim orqali har bir bitiruvchi uchun eng maqbul ta'lim

muassasalari ro'yxati shakllantiriladi. Shu bilan birga, mazkur toifa uchun qisqa muddatli o'quv kurslari dasturlari ishlab chiqiladi.

Albatta, kasbiy ta'lim tizimining yakuniy natijasi diplom bilan belgilanmaydi. Uning haqiqiy samaradorligi bitiruvchining qanchalik tez va barqaror tarzda mehnat bozoriga kirib borishi, o'z mutaxassisligi bo'yicha munosib ish topa olishi bilan namoyon bo'ladi. Agar ta'lim jarayoni ish bilan ta'minlash mexanizmlari bilan uzviy bog'lanmagan bo'lsa, eng puxta tayyorlangan kadr ham uzoq vaqt ish izlash holatida qolib ketishi mumkin. Shu sababli farmonda bitiruvchilarni mehnat bozoriga olib chiqish jarayonlarini raqamlashtirish va tizimlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yo'nalishda eng muhim tashabbuslardan biri 2026/2027-o'quv yilidan boshlab "Karyera" elektron platformasini ishga tushirishdir. Ushbu platforma oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari talabalarini hamda bitiruvchilarini ish beruvchilar bilan bevosita bog'lovchi raqamli mehnat bozori vazifasini o'tashi lozim. Uning asosiy vazifasi ta'lim tizimi bilan real iqtisodiyot o'rtasidagi uzilishni bartaraf etishdan iborat.

"Karyera" platformasi orqali talabalar va bitiruvchilar o'z malakasi, bilim darajasi, qiziqishlari, amaliy tajribasi haqida to'liq ma'lumot joylashtiradi. Ish beruvchilar esa mavjud vakant ish o'rinlari, talab etilayotgan kompetensiyalar, ish sharoitlari haqida ochiq axborot taqdim etadi. Platformaning muhim jihatlardan biri sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishdir. Mazkur texnologiyalar orqali talabalar va bitiruvchilarning qobiliyati, o'zlashtirish darajasi, qiziqish yo'nalishlari tahlil qilinadi hamda ularga mos ish o'rinlari tavsiya etiladi. Ish beruvchilarga esa eng munosib nomzodlar tanlab beriladi. Bu yondashuv tasodifiy tanlovlarni kamaytiradi, kadrlar va ish o'rinlari o'rtasidagi moslik darajasini oshiradi.

uslubi, strategik qarashlari, resurslardan foydalanish samaradorligi ham muhim omildir. Shu bois, farmonda texnikum direktorlari va o'rinbosarlariga menejerlik sertifikati berish tizimini joriy etish belgilangan. Menejerlik sertifikati olish jarayoni rahbarlarning bilimni baholash, ularni zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida o'qitish orqali amalga oshiriladi. Strategik rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv, inson resurslari bilan ishlash, ta'lim sifatini monitoring qilish kabi yo'nalishlar o'quv kurslarining asosiy mazmunini tashkil etadi. 600 nafardan ortiq rahbar va o'rinbosar menejerlik bo'yicha o'qitiladi va ularning boshqaruv salohiyati mustahkamlanadi. Texnikum direktorlari 50 foiz, o'rinbosariga 30 foiz miqdorida har oylik ustama berilishi boshqaruv sifati va mas'uliyat darajasini oshiradi.

Ta'lim sifati bilan uzviy bog'liq bo'lgan yana bir yo'nalish modulli ta'lim dasturlarini joriy etishdir. Farmonga ko'ra, kasbiy ta'lim tashkilotlarida modulli dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhlar shakllantiriladi. 2026-yil 1-martdan boshlab bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, 1-apreldan xorijiy tajribalar o'rganiladi, 1-sentyabrgacha esa texnikumlarda tayyorlanadigan kasb va mutaxassisliklar bo'yicha modulli dasturlar ishlab chiqiladi, o'quv jarayoniga tatbiq etiladi. 60 ta mutaxassislik bo'yicha modulli dasturlar ishlab chiqilishi ta'lim mazmunini aniq kompetensiyalarga yo'naltiradi. Har bir modul muayyan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi, o'quvchi bosqichma-bosqich o'zlashtirish darajasini namoyon etadi.

Bu borada xorijiy tajriba ham asqatadi. Rivojlangan davlatlar amaliyoti ko'rsatadiki, kasbiy ta'limda barqaror natijalarga erishish uchun xalqaro standartlar, zamonaviy metodikalar va ilg'or texnologiyalar bilan uzviy uyg'unlik zarur. Shu ma'noda, texnikumlar faoliyatiga xalqaro ta'lim tajribalarini keng joriy etish dolzarb masalalardan. Farmonga muvofiq, Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Koreya Respublikasi va Buyuk Britaniya kabi davlatlarning xalqaro ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlar ro'yxati shakllantiriladi. Texnikumlarda xalqaro ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlanadigan 60 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha ta'lim dasturlari ishlab chiqiladi. Dasturlar ishlab chiqarish ehtiyojlari, texnologik rivojlanish darajasi hamda kasbiy kompetensiyalar asosida shakllantiriladi. 2026-yil 1-noyabrgacha qadar xalqaro ta'lim dasturlari asosida kamida 8 ming o'quvchini qamrab olish rejalashtirilgan.

Kasbiy ta'lim tizimida barqaror natijaga erishish faqat o'quv dasturlari va moddiy-texnik baza bilan belgilanmaydi. Yoshlarning o'qishga munosabati, ichki intilishi, kelajakka ishonchi ham ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar o'quvchi o'z mehnati va sa'y-harakatlari jamiyat tomonidan qadrlanayotganini his qilsa, u bilim olish jarayoniga mas'uliyat bilan yondashadi, o'z ustida ko'proq ishladi, kasbiy mahoratini oshirishga intiladi. Shu sababli farmonda yoshlarni moddiy va ma'naviy jihatdan ko'lab-quvvatlashga qaratilgan rag'batlantirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur yo'nalishda eng muhim tashabbuslardan biri texnikumlarda dual ta'limda tashil olayotgan o'quvchilar uchun stipendiya tizimini joriy etishdir. 2026/2027-o'quv yilidan boshlab dual ta'limda o'qiyotgan o'quvchilarga davlat byudjeti hisobidan stipendiya to'lash amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Bunda har bir o'quvchiga fanlarni o'zlashtirish darajasidan qat'i nazar, bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida stipendiya beriladi. Fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi 85 foizdan yuqori hamda respublika va xalqaro tanlovlar g'oliblari bo'lgan o'quvchilarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida stipendiya to'lanadi. Mazkur rag'batlantirish tizimi orqali texnikumlarning 100 mingdan ortiq o'quvchisini qamrab olish rejalashtirilgan.

Yoshlarni rag'batlantirish tizimining yana bir muhim yo'nalishi — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun "Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" kasbiy mahorat milliy tanlovi tashkil etilishi. Tanlov texnikum o'quvchilari, yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida kasblar bo'yicha o'tkaziladi. Tanlov doirasida dolzarb 10 ta kasb belgilanadi, hududlar kesimida 700 nafar sovrindor saralab olinadi, respublika miqyosida esa 120 nafar g'olib aniqlanadi. G'oliblar va ularning ustozlari 4,9 million so'mdan 41,2 million so'mgacha miqdorda rag'batlantiriladi. Xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lgan ishtirokchilar esa 1 milliard so'mgacha mukofot bilan taqdirlanadi.

Kasbiy ta'limni yangilashga qaratilgan strategik yondashuv aslida iqtisodiy dasturdan ko'ra kengroq ma'noga ega. U jamiyatning o'zini anglash, mehnatga munosabatini qayta ko'rib chiqish, shaxs va davlat o'rtasidagi mas'uliyat muvozanatini mustahkamlash jarayonidir. Mehnat bozori arxitekturasini qayta shakllantirish tashabbusi insonning qadr-qimmatini uning aniq amaliy salohiyati, yaratuvchanligi va mas'uliyatiga bog'liq degan tamoyilni ijtimoiy ongga singdiradi. Ya'ni mahalla, ta'lim muassasasi, tadbirkorlik subyekti va davlat instituti o'rtasidagi uzviylik jamiyatni ichkaridan mustahkamlaydi. Mehnatga hurmat, malakaga e'tibor, ustoz-shogird an'anasining zamonaviy talqini, adolati raqobat muhiti — bularning barchasi barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi. Inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan har bir qadam davlat siyosatini ijtimoiy ishonch bilan boyitadi, ishonch esa, o'z navbatida, taraqqiyotning eng mustahkam tayanchiga aylanadi.






Farmonda bitiruvchilarning ishga joylashish jarayonlari ustidan avtomatlashtirilgan monitoring tizimini joriy etish ham belgilangan. Ushbu mexanizm orqali qaysi ta'lim muassasasining bitiruvchilari qayerda va qanday sharoitda ish boshlayotgani, qaysi yo'nalishlarda muammolar mavjudligi muntazam tahlil qilinadi. Bu ma'lumotlar asosida ta'lim dasturlarini takomillashtirish, yangi yo'nalishlarni ochish, mavjudlarini yangilash imkoniyati yaratiladi.

Yoshlarning "Karyera"si

Dunyo ta'lim tizimi tajribasi ko'rsatadiki, barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishgan davlatlarda kasbiy ta'lim umumta'lim maktablaridan keyingi "ikkinchi darajali tanlov" sifatida qaralmaydi. Aksincha, Germaniya, Shveysariya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda texnik va kasbiy ta'lim yoshlarni mehnat bozoriga olib kiruvchi asosiy platforma sanaladi. O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda aynan shu modelga yaqinlashish ehtiyoji kuchayib bormoqda. Maktab bitiruvchilarining

yo'nalishlari tavsiya etiladi. "Kasb tanlash haftaligi" tadbirlari maktablarda tizimli ravishda o'tkazilib, o'quvchilarga turli kasblarning real mazmuni, mehnat sharoiti, rivojlanish istiqbollari, daromad manbalari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Texnikumlarda o'qitiladigan mutaxassisliklar amaliy misollar orqali tushuntiriladi, muvaffaqiyatli mutaxassislar hayotiy tajribasi bilan o'rtiqloshadi.

2026-yil may-avgust oylaridan e'tiboran texnikumlar faoliyati bilan yaqindan tanishtirish ishlari kengaytiriladi. Rejaga muvofiq, 2026/2027 o'quv yilida texnikumlarda o'qish istagida bo'lgan yoshlarni qabul qilish jarayoni keng o'lamda amalga oshiriladi. Oliy ta'limga kirish istagida bo'lmagan 200 mingga yaqin o'quvchini kasbga o'qitish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, doimiy daromad manbai



uning davlat boshqaruvi, harbiy san'at hamda ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini zamonaviy ilmiy yondashuv asosida yoritib berishi bilan xalqaro ilmiy hamjamiyat uchun qimmatli manba bo'lishini qayd etdilar.

Mueller & Schindler korporatsiyasida o'tkazilgan uchrashuvda esa davlatimiz rahbarining maxsus So'zboshi bilan Toshkentda chop etilgan "Temur tuzuklari" asarini ispan tiliga tarjima qilish va nashr etish bo'yicha kelishuvga erishildi.

"Ulug' Amir va donna Mariya" filmining Madrid shahridagi "Palacio de Hielo" kinoteatrida tashkil etilgan taqdimoti mamlakatimizda tarixiy merosni tiklash, milliy o'zlikni anglash, O'zbekiston va Ispaniya madaniy aloqalarini rivojlantirish masalalariga katta ahamiyat berilayotganiga e'tibor qaratildi. Ushbu film Barselona shahridagi mashhur "Cinemes Girona" kinoteatrida ham taqdimot qilindi. Unda ispaniyalik tomoshabinlar bilan birga Barselona shahrida istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz ham ishtirok etdi.



SOHIBQIRON SIYMOSI YANA G'ARB NIGOHIIDA

Joriy yilda mashhur davlat arbobi, engilmas sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur bobomizning 690-yilligi mamlakatimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlanmoqda. XIV asrda, g'oyat murakkab bir davrda yurtimiz hududida milliy davlatchilikni qayta tiklab, vatan ozdligi yo'lida ulkan jasorat ko'rsatgan buyuk ajdodimiz asos solgan qudratli saltanat jahon sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan.

Shuning uchun Amir Temurning hayoti va faoliyati salkam yetti asrdan buyon dunyo olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganib kelinadi. Jahonning turli mamlakatlarida Amir Temur va temuriylarga bag'ishlab minglab badiiy, ilmiy va san'at asarlari yaratilgan va bu ishlar hozir ham davom etmoqda.

Keyingi yillarda Amir Temur va temuriylar merosini chuqur o'rganish, uni yurtimiz va chet ellarda keng ommalashtirish borasidagi ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Joriy yilda davlatimiz rahbari tomonidan Sohibqiron Amir Temurning 690-yilligi munosabati bilan alohida qaror qabul qilinib, keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Ijodkorlarimiz tomonidan yangi ilmiy va badiiy kitoblar, film va spektakllar, tasviriy san'at asarlari yaratilmoqda. Xususan, buyuk ajdodimizning mashhur "Temur tuzuklari" asari yangidan nashr etildi. Temuriylar tarixi davlat mezuvi zamonaviy talablar asosida tubdan qayta ta'mirlanib, bu maskanda ilmu ma'rifati, yangi g'oyalari va tadqiqotlar uchun sharoitlar yanada kengaytirildi.

Poytaxtimizda Amir Temur va temuriylar Renessansiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro konferensiyada yurtimiz olimlari bilan birga dunyoning turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan atoqli tarixchilar, shoir va adiblar, madaniyat va jamoat namoyandalari ham ishtirok etgani xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatiga jahon miqyosida qiziqish va e'tibor tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Ushbu nufuzli anjuman qatnashchilari yangi O'zbekistonda Amir Temur va temuriylar merosining umumbashariy sivilizatsiya tarixidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish, uni yurtimiz va chet ellarda keng ommalashtirish borasidagi ishlar natijasida insoniyat tarixining buyuk sahifalaridan biri bo'lgan temuriylar davri merosi bugun yana dunyo nigohida ekanini e'tirof etdi.

Aprel — Amir Temur o'yligi davomida mamlakatimiz va chet ellarda yuqori darajada tashkil etilgan ko'plab ilmiy konferensiyalar, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlar buning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi.

Bu haqda gapirganda, bugungi kunda dunyoning taraqqiyot markazlari hisoblangan AQSH, Ispaniya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda mashhur ajdodimiz va u zot qoldirgan boy merosga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy va mediaanjanlar, jonli uchrashuv va davra suhbatlari, yangi film va kitoblar taqdimotlari G'arb olami ziyolilari, umuman, keng jamoatchiligida ulkan e'tibor va qiziqish uyg'otayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Kino san'ati tarix haqiqatini insonlar ongi va qalbiga yetkazishning eng ta'sirchan vosita. Shu bois, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Tirik tarix" dasturi doirasida "O'zbekfilm" kinostudiyasida suratga olingan "Ulug' Amir va donna Mariya" badiiy filmi premyeralari ushbu rang-barang tadbirlarning asosiy madaniy voqeasiga aylangani bejiz emas.

Filmining Vashington shtati AQSH Davlat departamenti xodimlari, siyosatshunos olimlar, tarixchi va ekspertlar, ommaviy axborot vositalari vakillari, Jorj Vashington universiteti professor-o'qituvchilari va talabalari, o'zbek diasporasi namoyandalari hamda vatandoshlarimiz ishtirokida bo'lib o'tgan rasmiy taqdimotida ham ayni shu jihat yaqqol sezilib turdi.

Marosimda ta'kidlanganidek, o'zbek san'at ustalari bilan birga, Buyuk Britaniya, AQSH, Braziliya, Fransiya, Italiya, Turkiya, Yaponiya kabi mamlakatlarning taniqli ijodkorlari, jumladan, Xuan Kasilyas, Oskar Foronda singari ispaniyalik mahoratli aktyorlar ham qatnashgan mazkur filmda Amir Temur saltanatining Yevropa davlatlari bilan diplomatik aloqalari, o'sha davrdagi siyosiy munosabatlari, madaniy hamkorlik va sivilizatsiyalarning o'zaro muloqoti mahorat bilan yoritilgan.

Kartina namoyishidan avval Amir Temur va temuriylar davrining dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan davra suhbat tashkil etilgan okeanorti muxlislariga o'rta asrlarda Osiyo va Yevropa qit'alarida kechgan hamda dunyoning siyosiy va harbiy arxitekturasiga uzoq yillar davomida ta'sir ko'rsatib turgan tarixiy voqealar ruhini yaqindan his qilish imkonini berdi.

Muhokamalarda so'zga chiqqan taniqli olim, professor Sebastiyen Peyroux Amir



Sevilya va Barselona shaharlarida bo'lib o'tgan ilmiy-ma'rifiy tadbirlar ham Markaziy Osiyo tarixiy merosini targ'ib qilish va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga qaratilgan bilan muhim ahamiyat kasb etdi.

Xususan, Madriddagi "Sasa Arabe" arab madaniyat markazida mamlakatimizning Ispaniyadagi elchixonasi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Kinematografiya agentligi hamkorligida "Buyuk temuriylar tarixi va madaniy merosi" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiyasi tashkil etildi. Ilmiy-akademik jamoatchilik vakillari, madaniyat va san'at namoyandalari, xalqaro ekspertlar, xorijiy davlatlar elchilari ishtirok etgan anjumanda Amir Temurning jahon tarixidagi o'rni, temuriylar Renessansining ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, yangi O'zbekistonning boy va qadimiy madaniy merosini asrash va targ'ib etishga qaratilgan sa'y-harakatlari haqida atroflicha ma'lumotlar berildi.

— Bunday loyihalar yosh avlodga o'z tarixini chuqurroq anglash va temuriylar madaniyatining asrlar davomidagi rivojlanishiga ko'rsatgan ta'sirini kengroq kontekstda ko'rish imkoniyatini beradi, — dedi Fransiya'dagi Temuriylar assotsiatsiyasi prezidenti Frederik Bressand anjuman chog'ida. — Bu ham mamlakat fuqarolari,

Taqdimotlarda so'zga chiqqanlar filmda Amir Temur siymosining yangi qiralarini ochishga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidlab, kartina nafaqat tarixiy voqealarni qayta jonlantirgani, balki o'sha olis davr ruhini, xalqlar o'rtasidagi munosabatlari mohiyatini chuqur his etish imkonini ham berganini urg'uladi.

O'zbekiston va Ispaniya xalqlarini qadimdan tarixiy-madaniy aloqalar o'zaro bog'lab turadi. Xususan, bundan 622 yil muqaddam Kastiliya va Leon elchisi Rui Gonsales de Klavixo yurtimizga, Sohibqiron Amir Temur saroyiga tashrif buyurgan va bu haqda mashhur "Kundaliklar"ida noyob ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Mamlakatimiz delegatsiyasi a'zolarining Ispaniyaga tashrif davomida bu tarixiy fakt ham bir necha bor tilga olindi. Jumladan, yozuvchi Xesus Sanches Adalid hamda ssenariy va prodyuser Alexandro Olvera bilan uchrashuvda "Klavixo" badiiy-publististik filmni hamkorlikda yaratish yuzasidan fikr almashildi.

Grenada shahri yurtimiz vakillarining navbatdagi tashrif manzili bo'ldi. Bu yerda Yevro-Arab oliy tadqiqotlar jamg'armasi vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi. Jamg'arma Yevropa Ittifoqi va arab-musulmon dunyosi davlatlari o'rtasida madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishga ixtisoslashgan xalqaro tashkilot bo'lib, o'z faoliyatida ta'lim dasturlarini qo'llab-quvvatlashga, madaniy xilma-xillik va diniy radikalashuvning oldini olishga doir qo'shma loyihalarga asosiy e'tibor qaratadi. Uchrashuvda Jamg'arma fondlariga saqlanayotgan, yurtimizga daxldor manbalarni birgalikda o'rganish va ilmiy e'tibor ko'rsatish, jumladan, Rui Gonsales de Klavixoning Amir Temur saltanatiga sayohati tarixi bilan bog'liq qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha fikr almashildi.

Muloqot chog'ida mamlakatimizda yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol toptirish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotgani, dunyodagi hozirgi g'oyat murakkab davrda aynan ta'lim, ma'rifati va madaniyat yosh avlodni buzg'unchi va zararli ta'sirlardan himoya qilishning asosiy vositasiga aylanayotgani ta'kidlandi. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati ham shu ezu mavzuga qaratilgan e'tirof etildi. Shu bois, tomonlar o'zaro tajriba almashish, ilg'or xalqaro amaliyotni o'rganishdan manfaatdor ekanini, yosh mutaxassislarini tayyorlash va ta'lim dasturlarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikka tayyorliklarini bildirishdi.

“Amir Temurning hayoti va faoliyati salkam yetti asrdan buyon dunyo olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganib kelinadi. Jahonning turli mamlakatlarida Amir Temur va temuriylarga bag'ishlab minglab badiiy, ilmiy va san'at asarlari yaratilgan va bu ishlar hozir ham davom etmoqda.”

Mamlakatimiz delegatsiyasining Buyuk Britaniyaga tashrif madaniy voqealarga boy kechdi. Kinematografiya agentligi direktori vazifasini bajaruvchi Shuhrat Rizayev boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi elchixonasi bilan hamkorlikda o'zbek madaniyati va san'atini targ'ib qilish, ingliz kinostudiyalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha muzokaralar o'tkazdi.

Britaniya kolleksiyalarida saqlanayotgan, O'zbekistonga oid kitob va albomlar taqdimoti tashkil etildi.

Londonning "Regent Street Cinema" kinoteatrida "Ulug' Amir va donna Mariya" badiiy filmi namoyishi bo'lib o'tdi. Namoyishda 200 ga yaqin xorijiy mehmon, jumladan, Buyuk Britaniya lordlari va parlament a'zolari, Vestminster universiteti rahbariyati, diplomatik korpus vakillari, xorijda mehnat qilayotgan va o'qiyotgan vatandoshlarimiz qatnashdi.

Vestminster universiteti rektori, professor Peter Bonfiyeld ushbu tarixiy filmni tomoshba qilib, Amir Temur shaxsi va uning Yevropada turgan o'rni haqida juda ko'p yangi ma'lumotlarga ega bo'lganini bildirdi. Murakkab syujetli ushbu tarixiy filmni suratga olgan kinoijodkorlar mahoratiga yuqori baho berdi.

Buyuk Britaniyada yashayotgan o'zbek yoshlari va vatandoshlar bunday filmlarni chet ellarda ko'proq namoyish etish kerakligini, ular xorijda istiqomat qilayotgan yurtdoshlarimizga vatanga muhabbat va ajdodlarga ehtirom hissinu yanada oshishiga xizmat qilishini ta'kidladilar.

Tadbirlar doirasida O'zbekiston va Buyuk Britaniya o'rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlash, milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligini targ'ib etuvchi kinomahsulotlar platformasini yaratish bo'yicha hamkorlik memorandumini imzolandi.

Shuningdek, O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi elchixonasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi hamkorligida Amir Temurga bag'ishlangan mediaanjan o'tkazildi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining xalqaro auktsion uylari va artefaktlarni sotuvchi dilerlar bilan hamkorlik bo'yicha maxsus komissiya si a'zolaridan iborat delegatsiya Buyuk Britaniyada bo'lib o'tgan Islom merosi haftaligi doirasida Sotheby's, Christie's auktsionlaridagi O'zbekistonning madaniy merosi bilan bog'liq artefaktlar savdolarida ishtirok etdi. Ushbu auktsionlarda O'zbekiston madaniy merosiga aloqador bo'lgan 29 ta lot uchun kurash olib borildi va ularni xarid qilish huquqi qo'lga kiritildi. Mazkur artefaktlarning 8 tasi turli davrlarga

tegishli Qur'on qo'lyozmalari, 1 tasi nodir qo'lyozma, 6 tasi boburiylar davriga mansub tasviriy san'at asari hisoblanadi.

O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi elchixonasida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining madaniy merosga qarshi jinoyatlarga qarshi kurash guruhi tomonidan Londonda o'tkazilgan maxsus operatsiya doirasida o'lgan olingan 10 ta noyob tarixiy artefaktning O'zbekistonga beg'araz topshirish marosimi ham o'tkazildi.

Buyuk Britaniyaning nufuzli siyosat va madaniyat namoyandalari, London politisiyasi va bojxonasi vakillari, xalqaro ekspertlar ishtirok etgan ushbu tadbirda bu noyob artefaktlarni mamlakatimizga qaytarish haqidagi qarorga yurtimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi madaniy merosni o'rganish va saqlash bo'yicha yuritilayotgan davlat siyosati asos bo'lgani alohida e'tirof etildi.

Mazkur nodir osori atiqalardan 2 tasi sopoladan, yana 2 tasi gipsdan yasalgan haykal boshlari bo'lib, taxminan milodiy II-V asrlarga, Kushon podshohligi davridagi Gandhara madaniyatiga mansubdir. Artefaktlarning 5 tasi miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalariga tegishli devoriy suratlar parchalari bo'lib, ularda o'sha paytlardagi ajdodlarimiz qiyofalari va tarixiy jarayonlar aks etgan.

Shuningdek, artefaktlar orasida qora toshdan ishlangan qabrtosh ham bo'lib, ashtarxoniyalar davriga mansub, 1642-yilda vafot etgan saroy amaldorlaridan biriga tegishli ekanini aniqlandi. Ushbu artefaktlarning barchasi yurtimizga olib kelindi. Tarixiy adolat qaror topdi.

Darvoqe, Sohibqiron bobomiz o'z saltanatini adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari asosida boshqargan edi. Ota yurti Shahrisabzda o'zi bunyod ettirgan go'zal me'moriy obida — Oqsaroy pesthoqiga "Adolat davlatning asosi va hukmdorlar shioridir", degan so'zlarni yozdirgan edi. Bu hikmatli so'zlar bugungi kunimiz uchun ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega. Chunki tinchlik va adolat hukm surgan joydagina ilm-ma'rifati, san'at, adabiyot va madaniyat taraqqiy topadi. Xalqlar va davlatlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik rivojlanadi.

Shu ma'noda, buyuk ajdodimiz va uning shonli sulolasi tomonidan yaratilgan temuriylar Renessans mamlakatimizda yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratishda biz uchun katta ishonch, ilhom va kuch-g'ayrat manbai bo'lib xizmat qilayotgani ham, endilikda yana Sharq va G'arb olamida muhokamalar maydoniga chiqqani ham tabiiy va qonuniy tarixiy jarayon hisoblanadi.

Olim TO'RAQULOV